


**K. QOSIMOVA, S. FUZAILOV,
A. NE'MATOVA**

ONA TILI

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik**

**Qayta ishlangan va to'ldirilgan
o'n to'rtinchi nashri**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tasdiqlagan*



**Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2018**

UO'K 811.512.133'242(075.2)
 KБК 81.20'zb-922
 O-58

Mas'ul muharrir:

To'lg'in Tog'ayev — filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Ma'ruf Yo'ldoshev — A. Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti;

Nargiza Dilova — Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI katta o'qituvchisi;

Mazmuna Jalilova — Olmaliq shahar 18-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Shartli belgilar:



— topshiriq



— o'ylab ko'ring



— multimedia ilova



— uyga vazifa



— dars tugadi

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligisiz to'liq yoki qisman ko'chirib bosish taqiqlanadi.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
 hisobidan chop etildi**

ISBN 978-9943-5088-5-9

© K. Qosimova va boshq., 2018
 © Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016
 © Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018

Vatanni sevmok iymondandir!

TAKRORLASH

NUTQ. OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ



1-mashq. Rasm mazmunini so'zlab bering.



Hikoyangiz nima deyiladi? U qanday nutq?



2-mashq. O'qing. Necha gap o'qidingiz?

Biz Vatanimiz — jonajon O'zbekistonni onamizdek sevamiz. Shuning uchun uni ona Vatan

deb ardoqlaymiz. Ona Vatanimiz go‘zal va bepoyon.



Og‘zaki nutqda bir gap boshqasidan qanday ajratiladi? Yozma nutqda-chi?

Ikkita gapni yozing va ularni tekshiring.

3-mashq. O‘qing.

Islom Karimov — O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti. Toshkent, Samarqand va Qarshi shaharlarida Prezidentimizga haykal o‘rnatildi. Samarqand I. Karimovning tug‘ilib o‘sgan ona shahridir.



Siz qanday nutq o‘qidingiz? Yozing.



4-mashq. O‘qing.

Yangi o‘quv yilingiz qutlug‘ bo‘lsin!
Bilimlarni puxta egallang. Ona Vatanga munosib farzand bo‘ling.



Yozing. Yozganingizni bo‘g‘inlab o‘qib, tekshiring.



Bir gap boshqasidan (keyingisidan) nima bilan ajratiladi?



5-mashq. O'qing.

Yurt tinchligi — ulkan boylik. O'zbekistonimizda tinchlik barqarordir. Biz uning qadriga yetaylik.



Nutq nimalardan tuzilgan? Yozing.

6-mashq. O'qing.

Gulzoda ozodalikni yoqtiradi. Orasta kiyinadi. Maktabga ham kechikmay boradi. Har xil telefon o'yinlariga behuda vaqt sarflamaydi. Darslarini o'z vaqtida qiladi. Bo'sh vaqtlarida kitob o'qiydi.



So'zlab bering. Siz nimalar haqida so'zladingiz? U qanday nutq? Ikkita gapni yozing.

7-mashq. Quyidagi savollarga javob yozing:

1. Maktabga soat nechada borasiz?
2. Sinfdoxlaringiz bilan qanday munosabatdasiz?
3. Soat nechada maktabdan qaytasiz?
4. Bo'sh vaqtingizdan qanday foydalanasiz? Yozganlaringiz qanday nutq bo'ladi?



8-mashq. O'qing. Mazmunini tushunib oling.

Televizorni 3—5 metr uzoqlikdan ko'rish tavsiya etiladi. Uni qorong'ida ko'rish ham

mumkin emas. Negaki, bu ko‘rish qobiliyatiga yomon ta’sir qiladi.



Yozing. Nechta gap yozdingiz?



GAP VA SO‘Z

9-mashq. O‘qing. Nечта gap o‘qidingiz? Gaplarning chegarasini aniqlang.

sinfimiz keng va yorug‘ deraza tokchalariga gullar qo‘yilgan biz sinfimizni toza saqlaymiz



Yozing. Har bir gapning birinchi so‘zini bosh harf bilan boshlang. Gapning oxiriga nuqta qo‘ying.

10-mashq. Ifodali o‘qishga tayyorlaning.

Turna ko‘zli buloqcha
Qaynab yotar biqirlab.
Qaynar-u toshib ketmas,
Kulgan bo‘lar qiqirlab.

Habib Rahmat



She‘rdan ikkita gapni yozing. Yozganingizni tekshiring.

Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi.

Gapning oxiriga **nuqta (.)**, **so‘roq belgisi (?)** yoki **undov belgisi (!)** qo‘yiladi.

Masalan: *Biz anhorda cho‘mildik. Sen suzishni bilasanmi? Cho‘milish qanday maza!*

11-mashq. O‘qing.

Siz muzey tomosha qilishni yoqtirasizmi? Unda Toshkentdagi O‘zbekiston Davlat tabiat muzeyiga boring. U Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Muzeydagi ashyolar juda ajoyib!



Yozing.



12-mashq. Uchta gap yozing. Mazmuniga qarab, oxiriga nuqta, so‘roq, undov belgilarini qo‘ying.

13-mashq. O‘qing.



Men maktabga har kuni mana shu katta yo‘l bilan boraman. Yo‘lning chetida bir oyoq so‘qmoq bor. O‘ng tomonidan katta kanal oqadi. Kanalning ikki tomonida qator mirzateraklar...

Nosir Fozilov



Nechta gap o‘qidingiz? Gaplarni husnixat qoidalariga amal qilib yozing.

14-mashq. O'qing. Eslab qolishga harakat qiling.

Ziroat opa ishdan qaytganda qizchasi Odila eshik oldida o'ynab yurgan edi. U yugurib borib, onasini quchoqladi. Ona Odilaning peshonasidan o'pdi. Sumkasidan uch dona konfet ham olib berdi.

Mahmud Murodov



Nechta gap o'qidingiz? Gaplarni yana qayta o'qing. Eslab qolganlaringizni yozing.



15-mashq. She'rni o'qing.

Do'stlar, mening yurtimni
O'zbekiston deydilar.
Dong'i tutgan dunyoni
Bog'-u bo'ston deydilar.

Zafar Diyor

She'rda nechta gap bor? Birinchi gapni yozing.
Shu gapda nechta so'z bor?



BOSH HARF BILAN YOZILADIGAN SO'ZLAR



Qaysi so'zlar bosh harf bilan yoziladi?

16-mashq. O'qing. Nechta gap o'qidingiz?

Shavkat kuchukcha boqdi. U kuchukchaga Ziyrak deb nom qo'ydi. Ziyrak yaxshi o'syapti.



Yozing. Kuchukchaga qo'yilgan nomni bildirgan so'zning tagiga chizing.

17-mashq. O'qing.

Nargiza Abdullayeva — mening dugonam. Uning Malla degan mushugi bor. Biz doim birga o'ynaymiz.



Gaplarni yozing. Yozganingizni tekshiring.

Qaysi so'zlarni bosh harf bilan yozdingiz? Nima uchun?

Kishilarning ismi va familiyasi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi.



18-mashq. O'qing. Nechta gap borligini ayting.

Gulnoza mushukcha boqdi unga Baroq deb nom qo'ydi mushukcha juda chiroyli ovozi yoqimli Gulnoza uni non va sut bilan boqadi



Yozing. Har bir gapning birinchi so'zini bosh harf bilan yozing. Gapning oxiriga nuqta qo'ying.



19-mashq. O‘qing.

— Daraxtlarga
Qara, Nodir.
Nega bargin —
To‘kayapti?

— Bu eskisi,
Bahor unga
Yangi ko‘ylak —
Tikayapti!

Orif To‘xtash



Yozing. Bosh harf bilan yozilgan so‘zlarga e‘tibor bering. Gapning oxiriga qo‘yilgan belgilarni izohlab bering.

20-mashq. Rasmga qarang. Bolalarga ism, hayvonlarga nom qo‘ying.



Rasm asosida gaplar tuzing va yozing.



21-mashq. Kishi ismlaridan beshta va hayvon nomlaridan beshta yozing.



1-sinfda o‘rgangan qaysi mavzular yodingizga tushdi?



TOVUSHLAR VA HARFLAR



Tovushlar yozuvda qanday belgilanadi?

22-mashq. O‘qing, javobini toping.

Qanoti bor, qoni yo‘q,
Tuxum qo‘yar, soni yo‘q.



Topishmoqning javobini yozing.

k						k
---	--	--	--	--	--	---



Topishmoqning javobi nechta tovushdan tuzilgan?
Bu tovushlar yozuvda qanday harflar bilan ifodalanadi?

Tovushlar yozuvda harflar bilan ifodalanadi.

23-mashq. Ovoz chiqarib o‘qing. Berilgan so‘zlar qaysi tovushlari bilan bir-biridan farqlanishini ayting.

Bil — dil — til, tovis — tovuq, etak — etik, ko‘z — kuz.



Yozing. So‘zlarning ma’nosini o‘zgartirayotgan harflar tagiga chizing.

24-mashq. Berilgan so‘zlarga bitta tovushi bilan farqlanadigan so‘zlar toping.

Don — non, boy — ..., pilla — ..., choy — ..., paxta — ..., bog‘ — ...



So‘zlarni namunadagidek yozing. So‘z ma’nosini farqlayotgan harflarning tagiga chizing.



25-mashq. Ovoz chiqarib o‘qing. So‘zlar qaysi tovushlar bilan farqlanyapti?

Bilak — tilak, lola — tola — bola, bolg‘a — bolta, savob — javob, keng — teng, mosh — tosh.



Yozing. So‘z ma‘nosini o‘zgartirgan harfning tagiga chizing. Bir tovush bilan farqlanadigan ikkita so‘z ayting.



26-mashq.

Ozod — obod so‘zlari qaysi tovushlari bilan bir-biridan farqlanmoqda?

«Ozod va obod Vatanim» mavzusida 5–6 ta gap tuzib yozing.



27-mashq. Bir tovush bilan farqlanadigan so‘zlarga misollar yozing.



UNLI TOVUSHLAR VA HARFLAR



Unli tovushni undosh tovushdan qanday ajratamiz?

Avval **a, e, i, o, u, o‘** unli tovushlarni, keyin **b, d, f, m, p, t** undosh tovushlarni ayting. Qaysi tovushlarni aytganingizda havo og‘izda to‘siqqa uchramay, erkin o‘tadi?

Unli tovushlarni aytganimizda havo og‘izda to‘siqqa uchramay, erkin o‘tadi. Faqat un (ovoz) eshitiladi.

O‘zbek tilida oltita unli tovush bor: **a, e, i, o, u, o‘.**

Unli tovushni ifodalaydigan harflar ham oltita: **a, e, i, o, u, o‘.**

28-mashq. O‘qing.

Ona tilim, turkiy tilim,
Ardoqligim o‘zbek tilim,
Avaylayman seni doim
Qovoq ila ko‘zdek, tilim.

Miraziz A‘zam



She‘rning har bir qatorini bosh harf bilan boshlang va xatboshidan yozing. Unli tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.

29-mashq. Maqollarni o‘qing.

Odob — oltindan qimmat.

Aql bilan odob — egizak.



Yozing. Har bir so‘zda nechta unli tovush va nechta bo‘g‘in bor?

Bir unli tovush bo‘g‘in hosil qiladi:
o-na, a-ka, u-ka.



30-mashq. O‘qing. Faqat bir unli tovushni ifodalagan harf bo‘g‘in hosil qilgan so‘zlarni yozing. Shu bo‘g‘inning tagiga chizing.

Ona, ota, singil, aka, uka, opa, tog‘a, xola, amaki, amma.



31-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qing. Shu so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida doim **a** tovushini ayting.

Vatan, jahon, **mashina**, havo, **baho**, bahor, **javob**, tamom, shaftoli, **vazifa**, bahodir, shamol.



Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yozing, **a** harfining tagiga chizing.



32-mashq. Tushirib qoldirilgan **a** va **o** harflarini nuqtalar o‘rniga qo‘yib, so‘zlarni o‘qing.

S...bzi, b...dring, kar...m, q...vun,
k...rt...shka, t...rvuz, sh...lg‘...m,
h...nd...lak, l...vl...gi, q...v...q.



Sabzavotlar va poliz ekinlari nomini alohida-alohida yozing.

Sabzavotlar: *lavlagi*,

Poliz ekinlari: *qovoq*,



33-mashq. Tushirib qoldirilgan unli tovushlarni ifodalagan harflarni nuqtalar o'rniga qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

S...do, s...hifa, n...muna, so...t, n...vbatchi, s...vat, f...zogir, l...viya, y...stiq, y...mg'ir.



«Imlo lug'ati»dan tekshiring.



34-mashq. Ertakni davom ettiring.

Kunlardan bir kun A va O unlilari uchrashib qolishibdi...



Partadoshingizning yozgan ertagini o'qing va fikr bildiring.



35-mashq. A va unlilari bor so'zlarga misollar yozing.



36-mashq. So'zlarni bo'g'inlab o'qing.

Bulbul, tutun, butun, burun, burgut, quduq, urug', tuxum, chumchuq, uzum.



So'zlarni yozing. Unli tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.

Birinchi bo'g'inida **u** unlisi kelgan bunday so'zlarning ikkinchi bo'g'inida ham **u** harfi yozilishini unutmang.



37-mashq. Rasmlarga qarang. Bittadan bo'g'in qo'shib, so'z tuzing va yozing. Unli tovushni ifodalagan harflar tagiga chizing.

bul —



— xum

chum —



— zum



Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.



38-mashq. Tushirib qoldirilgan **u** harfini nuqtalar o'rniga qo'yib ko'chiring. Shu so'zlarning yozilishini bilib oling.

Shirin ...z...m, ...chq...r ot, sara ...r...g', chuqur q...d...q, oq t...n...ka, ...n...mli yer.



39-mashq. O'qing. I unlisini so'z va bo'g'in bo'shida uzunroq, undoshdan so'ng esa qisqa ayting.

Inoq, **intizom**, igna, ilm, ilg'or, imzo, **izzat**, oila, **bilim**, bilan, **sinf**, gilam, **kitob**, pichan, nihol, **tirnoq**, **qo'shiq**, koinot.



Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni yozing.



40-mashq. Tushirib qoldirilgan unli tovushlarni ifodalagan harflarni nuqtalar o'rniga qo'yib, so'zlarni yozing.

P...lla, s...gir, s...mob, g...los, o'tk...r, n...xat, l...tsey, r...mol.



Shu so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzing.



41-mashq. She'rni o'qing.

O'ZBEKISTON

Dadil **qadam** tashlagaysan,
Jahonaro yashnagaysan.
Xalqni baxtga boshlagaysan,
Baxt makonim, **O'zbekiston.**

Qambar Ota



She'rning birinchi va ikkinchi qatorini yozib, unli tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.



Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzing.



42-mashq. «Imlo lug'ati»dan **u** va **o'** unlisi bor so'zlarga 5 tadan misollar topib yozing. Ularni talaffuz qiling. Yozilishini eslab qoling.

43-mashq. Rasm-diktant yozishga tayyorlaning.
Sut beruvchilarning nomlarini yozing.



44-mashq. Rasmlarga qarab, uch-to'rtta gap tuzing.



O'qing.

Nabi gulzorda kapalaklarni quvlashni yaxshi ko‘radi. U ham buvisining ertaklarini tinglashga shoshiladi. Buvi nabiralariga ko‘p ertaklar aytib beradi. Asila, Nargis va G‘anisher buvisini jon qulog‘i bilan tinglaydilar.



Gaplarni rasmlar tartibida yozing. Unli harflarning tagiga chizing.



45-mashq. O‘qing. Javobini toping.

Uyning shiftida ini,
Kuylab berar har kuni.
Bahorda kutib olib,
Kuzatamiz kuz uni.

q								ch
---	--	--	--	--	--	--	--	----



Topishmoqni va javobini yozing. Unli tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.



46-mashq. Yod oling.

QUVNOQ UNLILAR

Aa

Ayiq asal yaladi,
Asalari taladi.

Oo

Oqqush ko‘lda suzadi,
Oppoq bo‘yin cho‘zadi.

Ee

Echki dedi uloqqa:
— Endi ketma uzoqqa.

Uu

Uzib beraymi uzum,
Uzumni ekkan — o‘zim.

Ii

Itim bor — nomi To‘rtko‘z,
Ikkalamiz juda do‘st.

O‘o‘

— O‘rgimchak, hoy, o‘rgimchak,
O‘rgat to‘qishni jindak.



Yoddan yozing.



47-mashq. Unli harflarga atab «Quvnoq alifbe»
tuzib ko‘ring.



UNDOSH TOVUSHLAR VA HARFLAR



Undosh tovushlar qanday talaffuz qilinadi?

48-mashq. Rasmlarga qarang va so‘zlarni
o‘qing.



chumchuq



kaptar



bulbul



jo'ja



Har bir so'zning birinchi tovushini ayting. Havo og'izdan qanday o'tayotganini kuzating: erkin o'tyaptimi yoki to'siqqa uchrayaptimi?

Undosh tovushni aytganimizda havo og'izda to'siqqa uchraydi. Shuning uchun **ch, k** kabi undosh tovushlarni aytganimizda shovqin eshitiladi; **b, j** kabi tovushlarni aytganimizda shovqin va ovoz eshitiladi.

O'zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Ular ushbu harflar bilan ifodalanadi: **b, d, f, g, h, j (jo'ja), j (ajdar), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng.**

49-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi harflardan mosini qo'yib, so'zlar tuzing va ularni yozing. Undosh tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.

Qayi... (n, sh, q), zam...n (o, i),

ku... (z, y, l, n, ch, t), ol...m (a, i)

Namuna: *qayin, qayish, qayiq.*

50-mashq. O‘qing.

YURTIMIZNING BOSH MAYDONI

Davlatimizning bosh maydoni Mustaqillik maydonidir. Unda muhtasham inshootlar bunyod etilgan. Biz bu maydon bilan faxrlanamiz.



Gap nima haqida boryapti? *Davlat, mustaqillik, maydon* so‘zlarining mazmunini bilib, yozing. Undosh tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.



51-mashq. She’rni avval ichingizda (ovoz chiqarmay), keyin ovoz chiqarib o‘qing.

— Nega bug‘doy bosh egar? —
Savol berdim dadamga.
— Mehnatini olqishlab,
Ta’zim qilar odamga.

Tursunboy Adashboyev



She’rning oxirgi ikki qatorini yozing. Undosh tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.



52-mashq. Rasmga qarang. O‘qituvchi va o‘quvchilarga ism qo‘ying. Gaplar tuzing.



O'qing.

Maktabda bilimlar sinovi o'tkazildi. Unda Shodiya Sobirovaning sinfi g'olib bo'ldi. O'quvchilar o'z ustozlarini gullar bilan tabrikладilar. Ayniqsa, Akobir, Fozil, Shunqorbek va Barchinoy juda quvondilar.

Sarlavha qo'yib, hikoyani yozing. Undosh tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.



53-mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan undoshlarni qo'yib, so'zlarni yozing. «Imlo lug'ati»dan tekshiring.

Yong'o..., da...tar, ...onar, i...ak, lug'a..., o'qu...chi, sa...zavot, Tosh...ent, yo...tiq. 

JARANGLI VA JARANGSIZ UNDOSH TOVUSHLAR. ULARNING HARF BILAN IFODALANISHI

54-mashq. Gaplarni o'qing.

1. Bog'bon ko'chatni ekdi. 2. Shamol ko'chatni egdi. 3. Mard maydonda bilinadi. 4. Bahor mart oyidan boshlanadi.



Faqat bir harfi bilan farqlangan so'zlarni toping, g va k, d va t tovushlarini talaffuz qiling. Qaysi tovushni talaffuz qilganingizda shovqin va ovoz, qaysi tovushni talaffuz qilganingizda faqat shovqin eshitiladi?

Gaplarni ko'chiring, g va k, d va t harflarining tagiga chizing.

55-mashq. Yonma-yon berilgan so'zlarni o'qing. Shu so'zlarning birinchi tovushini talaffuz qilib, qiyoslang. Qaysi tovushni talaffuz qilganingizda shovqin va ovoz, qaysilarida faqat shovqin eshitiladi?

Dil — til, gul — kul, joy — choy, jala — chala, zina — sina, vaza — fazo.



So'zlarni yozing. Yonma-yon berilgan so'zlar ma'nosini farqlayotgan harflarning tagiga chizing.

O'zbek tilida jarangli va jarangsiz undosh tovushlar bor.

Jaranglilar: **b d g v z g' j j l m n r y ng**

Jarangsizlar: **p t k f s x ch sh q h**

Jarangli undosh tovushlarni aytganda shovqin va ovoz eshitiladi, jarangsiz undosh tovushlarda faqat shovqin eshitiladi.



56-mashq. So'zlarni o'qing.

Gul — kul, barg — park, vahm — fahm, jim — chim.



Juftlab berilgan so'zlarning birinchi tovushini talaffuz qiling. Ular qanday tovushlar?

Javob namunasi: **gul** so'zida birinchi tovush **g** — jarangli, **k** — uning jarangsiz jufti.



57-mashq. O'qing. Talaffuzda qaysi so'z oxiridagi undosh tovushning jarangsiz jufti aytilyapti?

Hamma o'z ishi bilan band bo'ldi. Oyisi ovqat qildi. Buvisi ko'rpa qavidi. Dadasi hovlida yer chopdi. Keyin birgalashib ovqatlanishdi, choy ichishdi.

Kavsar Turdiyeva



Yozing.



58-mashq. Ifodali o'qishga tayyorlaning.

O'rganar avval odob
Kitob o'qigan bola.
Yuzi bo'ladi oftob
Kitob o'qigan bola.

Po'lat Mo'min



She'rni yozing. Yozganlaringizni tekshiring.

Qaysi so'zlar oxirida **p** tovushi eshitiladi, ammo **b** harfi yoziladi?



Qaysi so'zlarning to'g'ri yozilishini tekshirish kerak?

59-mashq. So'zlarni o'qing. Ko'chiring.

Ziyoda — ziyod, maqsadim — maqsad, ozoda — ozod, maktabi — maktab, rubobi — rubob, javobi — javob.



Qaysi so'zlarning oxirida jarangsiz undosh tovushlar eshitilyapti? Shu so'zlarning tagiga chizing.

So'z oxirida kelgan jufti bor undosh tovushning yozilishini tekshirish kerak.



Qaysi so'z tekshirishda asos bo'lyapti?

So‘z oxirida kelgan jufti bor undosh tovushning yozilishini tekshirish uchun undoshdan so‘ng unli tovush qo‘shib aytamiz.

Oxirida undoshdan keyin unli keltirilgan so‘z tekshiruvchi so‘z hisoblanadi: *umidi — umid, sababi — sabab*.



60-mashq. So‘zlarni o‘qing. O‘g‘il bolalar ismi oxirida qaysi harflar tushirib qoldirilgan?

Xurshida — Xurshi..., Zohida — Zohi... , Maqsuda — Maqsu... , Habiba — Habi..., Rashida — Rashi..., Aziza — Azi... .



Tekshiruvchi so‘zni yozing, **d** harfi tagiga chizing. Keyin shunday xulosa chiqaring: *Xurshida* so‘zida unlidan oldin **d** harfi yozilgan, *Xurshid* so‘zida ham **d** harfi yoziladi.

Xurshid so‘zini yozib, **d** harfi tagiga chizing. Boshqa so‘zlarni ham shu tartibda yozing.



61-mashq. Maqollarni o‘qing.

Halol mehnat — mo‘l daroma... . Mehnatda sinalgan — elda azi... . O‘z aybini bilgan — mar... .



Tushirib qoldirilgan harflarni nuqtalar o'rniga qo'yib yozing. Yozilishi tekshiriladigan harfning tagiga chizing.



62-mashq. O'qing. So'zlarning oxiriga unli tovush qo'shib, yozilishini tekshiring.

Ozod, Umid, Obid, Ziyod, Xurshid.
Kitob, maktab, hisob, sabab, g'olib.



Oldin tekshiruvchi so'zni, keyin yozilishi tekshirilgan so'zni yozing: *Ozoda* — *Ozod*, *sababi* — *sabab*.

Bu so'zlarning yozilishini unutmang.



63-mashq. O'qing. Tushirib qoldirilgan undosh harflarni nuqtalar o'rniga qo'yib yozing.

Omadi — oma... , savodi — savo... , tartibi — tarti... , ahdi — ah... , savobi — savo... , hidi — hi... , odobi — odo... .



64-mashq. Rasmlarga qarab hikoya tuzing. Hikoyaga sarlavha tanlang.



Tolib bilan Obid tugunchani o‘z egasiga yetkazishdi.

Shokir ota ularga tashakkur bildirdi. Tuguncha ichidagi pul va hujjatlar hamqishloqlari Shokir otaniki ekan.

Aka-ukalar uyga qaytayotgan edilar. Yo‘lda tushib qolgan tugunchani ko‘rdilar.



Gaplarni rasmlar tartibida yozing. Jarangsiz jufti bor jarangli undoshning tagiga chizing.



65-mashq. O‘qing. Yod oling.



Ol tumshuq kaklikkinam,
Chiroyli patlikkinam.
Hadik bilmay uchaver,
Keng samoni quchaver.

Azamat Suyunov



Yoddan yozing. Jarangli undosh tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.



AYTILISHDA TUSHIB QOLADIGAN UNDOHLAR



66-mashq. Nuqtalar o'rniga **d, t** harflaridan mosini qo'yib yozing.

Xursan... , balan... , darax... , pas... , farzan... , payvan... , ros... , do's... .



Shu so'zlarning aytilishi va yozilishida qanday farq bor?

Samarqand, farzand, do'st, daraxt kabi so'zlar oxirida kelgan **d, t** tovushlari ba'zan aytilmasa ham yoziladi.

67-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning aytilishi va yozilishidagi farqni ayting.

Ona shahrim — azim **Toshkent**,
Go'zallikda tengsiz **poytaxt**.

Kelajagi buyuk shahar,
Quchog'ida yuz ochar baxt.

Ko'chalari ravon, nurli,
Binolari ko'rkam, **baland**.

Bo'lsam deyman bir koriga
Yaraydigan komil **farzand**.

Abdurahmon Akbar



She'rning keyingi olti qatorini yozing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning yozilishini yodda tuting.

68-mashq. Tez va to'g'ri o'qing.

Olti juft oq chinni choynakka to'rt juft ko'k qopqoqni, to'rt juft ko'k chinni choynakka olti juft oq qopqoqni yopib bo'ladimi?



Qaysi so'zlar oxiridagi undosh tovush aytilmasa ham yoziladi?



69-mashq. O'qing.

Alisher buvisining uyidan mushukcha olib keldi. Uyga o'rgansin, deb uni go'sht va sut bilan boqdi.

Habib Po'latov



Yozing. Aytilishi va yozilishida farq qilgan so'zning tagiga chizing.



70-mashq. Maqollarni o'qing.

1. Mehnatdan do'st ortar. 2. Boshingga qilich kelsa ham rost gapir. 3. Rejasiz ish — qolipsiz g'isht. 4. Baland tog'da qor bo'lar, mard kishida or bo'lar.



Ikkita maqolni yozing. Aytilishi bilan yozilishida farq qilgan so'zlarning tagiga chizing.

71-mashq. O'qing.

Pastga qarab turib charchaganidan Chiriq-voyning boshi aylanib ketibdi.

Baland imoratlarning birida ochiq turgan derazaga qo'nib, atrofni kuzata boshlabdi.

Halima Ahmedova



Yozing. Aytilishda undosh tushib qoladigan so'z-ning tagiga chizing.

72-mashq. Gaplarni o'qing. Aytilishda undosh tushib qoladigan so'zni ayting.

Odobli farzand ota-onasiga rahmat keltiradi. Qobil farzand bo'lishga intiling...

Xalq o'gitlaridan

Oramizdan qil o'tmaydi,
Bizlar inoq, bizlar do'st.

Shukur Sa'dulla



O'git va she'rni yodlang, yoddan yozing.



73-mashq. O'qing. Yozing. Maqollarning mazmunini aytib berishga tayyorlaning.

Daraxt ildizi bilan kuchli,
Odam — do'stlari bilan.

Rost so'zlagan yetar niyatga,
Yolg'on degan qolar uyatga.



J HARFINING IKKI TOVUSHNI IFODALASHI

74-mashq. Soʻzlardagi j harfining talaffuziga eʼtibor bering.

Injener, trikotaj, jasorat, jambil, montaj, kunjut, joʻmrak, jonivor, ijod, krujka, kottej.



Yozing. Yozganingizni tekshiring.

75-mashq. Gaplarni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlardagi j harfi qaysi undosh tovushni bildiradi?

1. **Ajdar** — ertaklarda uchraydigan afsonaviy katta ilon. 2. Siz **gijda** nondan yeganmisiz? 3. «**Bolajon**» jurnalini sevib oʻqiyman. 4. **Jaket** — yengil ustki kiyim, kamzul.



Gaplarni yozing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning aytilishi va yozilishini bilib oling.



76-mashq. Oʻqing.

JIRAFa – NEGA XAFa

Dumi bilan yonboshini choʻtkalab

Jirafa der: — tabiatdan oʻpkalab.

— Boʻyim hatto olti metr boʻlsa ham,

Suv ichaman ming azobda choʻkkalab.

Tursunboy Adashboyev



She'rni yozing. «Jirafa» so'zining aytishini eslab qoling.



77-mashq. «O'qish kitobi»dan matn tanlang. Matndan j harfi ikki xil tovushni ifodalovchi so'zlarga misollar topib yozing.



78-mashq. J harfi ikki tovushni ifodalovchi ikkita so'z toping. Ular ishtirokida gaplar tuzib yozing.



X VA h TOVUSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI



79-mashq. Rasmlarga qarang. Gaplarni o'qing.

Avtobusga bir ayol chiqdi.

Xurshid avtobusda oyna oldida o'tirgan edi.

Xurshid darrov o'rnidan turdi va ayolga joy berdi.



Gaplarni rasmlar tartibida yozing.

Bir gap bilan javob bering: Xurshid nima qildi?



80-mashq. Mazmunga mos soʻzlarni nuqtalar oʻrniga qoʻyib yozing, **x** va **h** harflari tagiga chizing.

Salqin ... , halol ... , moʻl ... , taxta ... , hushyor....



Nuqtalar oʻrniga qoʻyish uchun soʻzlar: *mehnat, havo, koʻprik, hosil, oʻquvchi.*



81-mashq. Gap-larni oʻqing. Tushirib qoldirilgan **h** harfini nuqtalar oʻrniga qoʻyib, yozing.

Be...zodning otasi — paxtakor. U ...ar yili paxtadan moʻl ...osil oladi.

Me...rining amakisi — bogʻbon. Bogʻida gilos, olxoʻri, be...i daraxtlari koʻp.



82-mashq. Rasmda koʻrsatilgan narsalarning nomini toʻgʻri ayting.



Tushirib qoldirilgan **h** yoki **x** harflaridan mosini nuqtalar oʻrniga qoʻyib, soʻzlarni yozing.

Ol...o'ri, be...i, dara...t, ...at, ...andalak,
pa...ta, ...o'roz.



«Imlo lug'ati»dan tekshiring.

83-mashq. So'zlarni o'qing. So'z boshida kelgan undoshni to'g'ri ayting.

Hayot, havo, haykal, hamshira, harf, hashar,
harorat, hikoya, hoshiya.



So'zlarni yozing, yozilishini yodda tuting.



Unli va undosh tovushlarni bir-biridan qanday farqlaysiz?



84-mashq. She'rni o'qing. Tushirib qoldirilgan harflarni nuqtalar o'rniga qo'yib, ko'chiring.

Bog'lar sha...ri,
El-yurt fa...ri,
Kulgan ba...ti,
Farg'onam.

Keling ...ar on,
Mo'l dastur...on,
Kutar me...mon,
Farg'onam.

Vali Ahmadjon



85-mashq. O'qing.



Uchqun bilan O'tkir maktabdan kelayotgan edilar. Ular o'ynoqlab kelayotgan buzoqni ko'rib qolishdi. O'tkir buzoqning yo'lini to'sdi. Uchqun

uni epchillik bilan ushladi. Buzoqning egasi Davron aka bolalarga rahmat aytdi.



Qanday bolalar haqida hikoya qilinyapti?

Savollarga javob yozishga tayyorlaning.

1. Bolalar nimani ko'rib qolishdi?
2. Ular nima qilishdi?
3. Kim bolalarga minnatdorchilik bildirdi?



Hikoyani yozing.



86-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga mazmunga mos so'zlarni qo'yib yozing.

... xalq, ... ish, ... chegarachi, ... qiz, ... dala, ... bola, ... dehqon, ... shaftoli.



Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: *mehmondo'st, mehnatsevar, rejali, sersuv, sergak, chevar, zehnli, keng.*



HARF BIRIKMASI BILAN IFODALANADIGAN UNDOH TOVUSHLAR



87-mashq. So'zlarni o'qing. Harf birikmasi qaysi undosh tovushlarni ifodalagan?

Lochin, sichqon, murch, kichik, uchburchak, kishmish, sharshara, mushuk, pashsha, ishonch, tengdosh, jangchi, kashnich, ishchi, dushanba.



Ikki bo‘g‘inli so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



88-mashq. Nuqtalar o‘rniga mazmunga mos so‘zlarni qo‘yib, maqollarni o‘qing.

Ish seni yengmasin, sen ishni Ishlagan yerni Gap bilan shoshma, ish bilan Achchig‘ing chiqsa ham aqling



Nuqtalar o‘rniga qo‘yish uchun so‘zlar: *shosh, qochmasin, yeng, yashnatadi.*

Mehnat haqidagi maqollarni yozing. Harflar birikmasi ishtirok etgan so‘zlar tagiga chizing.



89-mashq. O‘qing.

Toshkent O‘zbekistonimizning poytaxtidir.

Toshkentda O‘zbekiston Milliy bog‘i barpo etilgan. Bog‘da Alisher Navoiyning katta, chiroyli haykali bor.



Gaplarni yozing. Harflar birikmasi ishlatilgan so‘zlarning tagiga chizing. **Sh, ch, ng** harflar birikmasi qaysi undosh tovushlarni ifodalaydi?



90-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qing.

Tayyorga ayyor **nahang**
Tekinxo‘r, **takasaltang.**

Qarmoqdagi o'ljaga
Og'iz solgandi **qarang**,
Tumshug'idan ilinib
Tipirchilar, holi **tang**.

Dilshod Rajab



She'rni yozing.

91-mashq. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

Teng-dosh, dongdor, manglay, zarang, tarang, tanglay, tong, keng, chang, ming, bong, zang.



92-mashq. So'zlarni bo'g'inlab to'g'ri o'qing.

Ong-li, ingliz, rangdor, jangnoma, keng, kenglik, zang, ko'nglim, singil, kengash, dengizchi, zangori.



So'zlarni bo'g'inlarga bo'ling va ularni chiziqcha bilan ajratib yozing.



' – TUTUQ BELGISI



Tutuq belgisi qachon qo'yiladi?



93-mashq. So'zlarni o'qing. Tutuq belgisidan oldin kelgan undoshni keyin kelgan unlidan ajratib ayting.

Sur'at, Jur'at, Tal'at, San'at, qal'a, qat'iy, mash'al.



So'zlarni yozing. Tutuq belgili bo'g'inning tagiga chizing.



94-mashq. Tutuq belgisidan oldin kelgan unlini cho'ziqroq aytib, so'zlarni o'qing.

Ra'no, ba'zi, va'da, ma'no, ma'qul, sa'va, ta'zim, ta'lim, e'lon.



So'zlarni yozing. Tutuq belgisi qo'yilgan bo'g'inning tagiga chizing.

Tutuq belgisi bo'lgan so'zlar bo'g'inlarga quyidagicha bo'linadi: *mash'-al, va'-da, sa'-va.*

95-mashq. O'qing.

O'QISH DARSIDA

Ne'mat hikoyaning birinchi qismini o'qidi. Ma'ruf tushunganini aytib berdi. Jur'at «va'-da», «ma'mur» so'zlarining ma'nosini aytdi. Sa'di hikoyaning ikkinchi qismini o'qidi. Ma'mura uni so'zlab berdi. O'qituvchi ularni baholadi.



Savollarga javob bering.

Ne'mat nima qildi? Kim tushunganini so'zlab berdi? Jur'at qaysi so'zlarning ma'nosini aytdi? Sa'di nima qildi? Ma'mura-chi?



Tutuq belgisi bo'lgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



96-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi, aytilishi, yozilishini qiyoslang.

Ra'no **she'rni** ifodali o'qiydi.

Hayvonot bog'ida **sherni** ko'rdik.

Sur'at – a'lochi o'quvchi. U **suratni** chiroyli chizadi.



Gaplarni yozing. Tutuq belgisi bo'lgan so'zlar tagiga chizing.



97-mashq. So'z o'yini.

Quyidagi boshqotirmaning yechsangiz, tutuq belgili so'z kelib chiqadi.

1. Tomda bor-u jomda yo'q.
2. A'loda bor, bolda yo'q.
3. To'g'rida bor, egrida yo'q.
4. Ikromda bor, Sanamda yo'q.
5. Laganda bor, kosada yo'q.

1	2	3	4	5
	a'			

98-mashq. O'qing.

NA'MATAK

Na'matak o'rmonlarda, ariq yoqalarida, butalar orasida, tog' yonbag'irlarida o'sadi.

Guli chiroyli na'matak turlari ham bor. Ular bog'lar, xiyobon va ko'chalarda o'stiriladi.

O'zbekistonda na'matakning o'ndan ortiq turi uchraydi.



Yozing. «Na'matak» so'zining yozilishini eslab qoling.

99-mashq. Yoddan yozing.

Barcha tabiat ne'matlarini e'zozlang.



100-mashq. O'qing.

SA'VA

Sa'va tog'oldi joylardagi bog'larda ko'p uchraydi. U zararli hasharotlarni qiradi. Sayroqi qush ishqibozlari sa'valarni qafasda boqishadi.



Yozing. «Sa'va» so'zining yozilishini eslab qoling.



Tutuq belgisi nimani ifodalaydi?



BO'G'IN. SO'ZLARNI BO'G'INLARGA BO'LISH



101-mashq. O'ng va chap tomonda nimalar berilgan?

bilgan, el, til
biladi

da, la
A, zi, za
bog', bon



So'zlardan gap tuzing. Gapni yozing.
Bo'g'inlardan so'z tuzing. So'zlarni yozing.



So'zda nechta bo'g'in borligini qanday bilamiz?



102-mashq. O'qing. She'r nima haqida yozilgan?

Dadam, ukam, men, oyim,
So'zlashamiz muloyim.
Shirinso'zlik qoidamiz,
Shod, ahil oilamiz.

Faxriddin Hayit



Ikkinchi qatordagi so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

103-mashq. Bir, ikki va uch bo'g'inli so'zlar tanlang hamda yozing. Unli tovushlarni ifodalagan harflarning tagiga chizing.

Har bir bo'g'inda unli tovush bo'ladi.
So'zda nechta unli tovush bo'lsa, shuncha
bo'g'in bo'ladi: *bor, ba-hor, bax-ti-yor.*



104-mashq. She'rni o'qing.

O'zbekiston — ona yurt,
Dunyoda durdona yurt.
Xalqi tanti, mehnatkash,
Do'stlikda yagona yurt.

Habib Rahmat



She'rni bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib
yozing. Uch bo'g'inli so'zlarning tagiga chizing.



105-mashq. Bittadan bo'g'in qo'shib, so'z
tuzing.

...nor, ...jir, ...zum, gi..., ...rik, ...xo'ri,
shafto... .



So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib
yozing.



106-mashq. Maqolni o'qing.

Halol mehnat — yaxshi odat, berar senga
saodat.



So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib
yozing. Ikki bo'g'inli so'zlarning tagiga chizing.

Bo‘g‘in bir unli tovushdan tuziladi: *o-na, a-ka, sa-o-dat*.

Bo‘g‘in bir unli va bir undosh tovushdan tuziladi: *bo-la, lo-la, ol-ma*.

Bo‘g‘in bir unli va bir necha undosh tovushdan tuziladi: *mak-tab, sinf, dars-lik*.

107-mashq. Bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli, uch bo‘g‘inli so‘zlarni uch ustun shaklida yozing.

Do‘st, do‘stlik, sinf, sinfdosh, kitob, kitobxon, paxtakor, paxtazor.

108-mashq. O‘qing.

Otam – taniqli fermer. U zotdor sigirlarni boqadi.



Gapdagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

109-mashq. O‘qing.

GULLAR SHAHRI

Namanganni «Gullar shahri» deyishadi. Bu yerda har yili «Gul bayrami» o‘tkaziladi. Bayram Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog‘ida o‘tadi.



Nimalarni bilib oldingiz? Ikkinchi gapdagi soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib, chiziqcha bilan ajratib yozing. Shu gapdagi bir boʻgʻinli soʻzlarning tagiga chizing.



110-mashq. Oʻqing, tushirib qoldirilgan soʻzni toping.

Nima ekan bu qush nomi?
Sevar toʻqay, oʻrmonni.
Qoʻshiq aytarkan kuk-ku,
Shu sabab nomi

Quddus Muhammadiy



k				
---	--	--	--	--



Soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



Nima uchun qushning nomi kakku ekan?



BOʻGʻIN KOʻCHIRISH



? Yozganda soʻzning bir yoʻlga sigʻmay qolgan qismi keyingi yoʻlga qanday koʻchiriladi?

Soʻz bir yoʻldan ikkinchi yoʻlga boʻgʻinlab koʻchiriladi: *da-raxt, ol-cha, va'-da, san'-at.*

Soʻz boshida boʻgʻin hosil qilgan bir harfni oldingi yoʻlda qoldirib boʻlmaydi:

o-najon emas, *ona-jon*, *o'-quvchi* emas, *o'quv-chi* kabi ko'chiriladi.

So'z oxirida bo'g'in hosil qilgan bir harfni keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmaydi: *mudofa-a* emas, *mudo-faa*, *voqe-a* emas, *vo-qea* kabi ko'chiriladi.



111-mashq. So'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

Bulbul, mayna, to'rg'ay, kaptar, chumchuq, musicha, laylak, turna, qaldirg'och, qarg'a.



112-mashq. O'qing. She'r nima haqida yozilgan.

O'yin **o'ynasang**, bolam,
Kasb etsin ma'no, mazmun.
Odobli bo'lg'in har dam,
Ko'rganlar bo'lsin mamnun.
O'qish bo'lsin **mashg'ulot**,
To'p tepgin, o'yna shaxmat.
Kurashgin, choptirgin ot,
Ko'rganlar desin **rahmat**.

Omonulloh Mutal



Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chirish uchun bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

113-mashq. Rebusni toping. Topgan soʻzlaringizni koʻchirish uchun boʻgʻinlarga boʻlib yozing.



114-mashq. Quyidagi soʻzlar bir yoʻldan keyingi yoʻlga qanday koʻchiriladi?

Mashina, navbatchi, oʻyinchoq, onajon, oʻqituvchi, oʻquvchi.



Soʻzlarni koʻchirish uchun boʻgʻinlarga boʻlib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



Qanday soʻzlar koʻchirish uchun boʻgʻinlarga boʻlinmaydi?

Bir boʻgʻinli soʻzlar koʻchirish uchun boʻgʻinlarga boʻlinmaydi: *doʻst, dars, fasl, kuz, qish.*

Ona, ota, ahil, oʻrik, uzum kabi ikki boʻgʻinli soʻzlar koʻchirish uchun boʻgʻinlarga boʻlinmaydi.


115-mashq. O‘qing. Nima uchun bu so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘lib ko‘chirilmaydi?

Ahil, dars, ota, ona, aka, uka, aziz, ekin, uya, etik, eshik, sinf, qish, yoz, kuz, yil, tong.



So‘zlarni yozing. Unli tovushlarni ifodalagan harflar tagiga chizing.

116-mashq. Rebus-krossvordni yeching.



Topgan iborangizni yozing. Ko‘chirish uchun bo‘g‘inga bo‘linmaydigan so‘zning tagiga chizing.

117-mashq. O‘qing. Avval ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘linmaydigan so‘zlarni yozing. Keyin qolgan so‘zlarni ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

Muallim, olim, olam, o‘quvchi, she‘r, laziz, aziz, daftar, akajon, anor, aka, daraxt.



Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini yodga tushiring. Mashqni to‘g‘ri bajardingizmi? Tekshiring.



118-mashq. Topishmoqni o'qing. Javobini toping.

Bir otasi, bir onasi,
Necha yuz ming bolasi.



So'zlarni ko'chirish uchun bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing. Qaysi so'zlar bo'g'inlab ko'chirish uchun bo'linmaydi? Nima uchun?



Bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi keyingi yo'lga qanday ko'chiriladi?

Bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) keyingi yo'lga birgalikda ko'chiriladi: *pe-shona*, *pi-choq*, *si-ngil*.



119-mashq. So'zlarni ko'chirish uchun bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

Alisher, xizmatchi, singil, sershovqin, qizcha, dengiz, Rashida, Barchin.



Harflar birikmasi ishtirok etgan bo'g'inlar tagiga chizing.



120-mashq. O'qing.

Dilshod va Jamshid — aka-uka. Ular birgalikda gul o'tqazishdi. Dilshod suv tashidi.

Jamshid gullar tagini yumshatdi. Gullar o'sa boshladi. Bolalar juda sevinishdi.



Harflar birikmasi bilan yozilgan so'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



Tutuq belgisi bo'lgan so'zlar bo'g'inlarga qanday bo'linadi?



121-mashq. She'rni o'qing. Yoddan yozishga tayyorlaning.

Me'mor bo'lsam ulg'ayib,
Ko'p saroylar quraman.
...Derazadan jim boqib,
Shunday xayol suraman.

Vali Ahmadjon



Yoddan yozing. Tutuq belgili so'zni bo'g'inga bo'ling.



122-mashq. Bo'g'in ko'chirish haqida gapirib berishga tayyorlaning. Bu haqda darslikdan o'qing. So'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib, chiziqcha bilan yozing.

Ravshan, Mohichehra, ko'ngil, chumchuq,
qoshiq, ishchan, hasharot, pishiq.



SO‘Z ICHIDA YONMA-YON KELGAN BIR XIL UNDOSHLARNING TALAFFUZI BA IMLOSI



123-mashq. So‘zlarni o‘qing. Yonma-yon kelgan bir xil undosh harfli so‘zlarni aniqlang.

Izzat, labbay, pilla, katta, hissa, chaqqon, pashsha, quvvat, sodda, kakku, qimmat, oppoq, arra, tanaffus, achchiq.



Yozing. Yozganingizni tekshiring.

Ba’zi so‘zlar ichida ikkita bir xil undosh yonma-yon keladi: *tabassum, izzat, chaqqon*.



124-mashq. Gaplarni o‘qing.

1. Har yili tutamiz pilla: pilla emas, asl tilla.

2. Avval o‘yla, keyin so‘yla.



Yozing. Yonma-yon kelgan bir xil undosh harfli so‘zlarning tagiga chizing.

125-mashq. Ismlarni o‘qing.

Abbos, Zunnun, Mannop, Musallam, Mukar-ran, Muyassar, Munavvar, Muqaddam, Mu-hayyo, Muhammad.



Yozing. Yozganingizni tekshiring.



126-mashq. O'qing. She'r nima haqida yozilgan?

Do'stlar davrasi katta,
Qirq xil millat jo'ramiz.
Bir mayizni, albatta,
Birga baham ko'ramiz.

Shukur Sa'dulla



Yozing. Bir xil undosh yonma-yon kelgan so'zlarning tagiga chizing.



Yonma-yon kelgan bir xil undosh harfli so'zlar bo'g'in ko'chirish uchun qanday bo'linadi?

127-mashq. Tez va to'g'ri o'qing. Ko'chiring.

Abdul-la ar-ralaydi, Mufar-rax al-lalaydi.
Nov-voy non yopar,
Non-ni nov-vot deb sotar.

Bo'g'in ko'chirishda yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning bittasi oldingi bo'g'inda qoldiriladi, ikkinchisi keyingi bo'g'inga ko'chiriladi: *kat-ta, iz-zat, say-yora.*

128-mashq. O'qing.

Shohruh degan o'g'lonman,
 Ishga tayyor, chaqqonman.
 Oyimlarga yoqqanman,
 Dadamlarga yoqqanman.
 Hammalari izzatda,
 Men bo'laman xizmatda.

Qambar Ota



Yonma-yon kelgan bir xil undosh harfli so'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib, she'rni yozing.

129-mashq. O'qing. So'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

G'alla, chinni, tonna, barra, issiq, naqqosh, chittak, qubba, rassom, qissa.



130-mashq. O'ylang, qaysi harflar tushib qolgan?

a	r	r	
i	k	k	
	k	k	i

a	v	v		l
t		l	l	a
h		m	m	a



Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, so'zlarni ko'chirish uchun bo'g'inga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



131-mashq. O‘qing. So‘zlab bering.

Kaptar ovchining to‘riga ilindi. Ovchi uni tutib olmoqchi bo‘ldi.

Buni chumoli ko‘rib qoldi. Ovchining ko‘ylagi ichiga kirdi. Yelkasini qattiq chaqdi.

Ovchi chiday olmadi. U to‘rni qo‘lidan tashlab yubordi. Kaptar qutulib, uchib ketdi.



Hikoya necha qismdan iborat? O‘rganilgan mavzuga oid so‘zni aniqlang. Sarlavha qo‘yib, yozing.



132-mashq. Topishmoqlarning javobini toping.

Katta varaq, dumi taroq,
Akasining ismi — quroq.

y					q
---	--	--	--	--	---

Og‘zi yo‘g‘-u tishi ko‘p,
Chaynagani to‘sin, cho‘p.

j				a
---	--	--	--	---



So‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish uchun bo‘lib, topishmoqlarni yozing.



133-mashq. O‘qing.

Sport bilan shug‘ullanish kishini chiniqtiradi. Baquvvat, irodali, chaqqon qiladi.

Fikrlashga undaydi. Davralarda o'zini tutishga o'rgatadi. Do'stlar orttiradi.



Yozing. Bir xil undosh yonma-yon kelgan so'zlarning tagiga chizing.

134-mashq. Tez aytishlarni yod oling. Tez aytishga harakat qilib ko'ring.

Gullagan gulzorda Gullola gul teryapti.

Ko'kda chaqmoq charsilladimi,
O'choqdagi olov chirsilladimi?

Ravshan Isoqov



Yozing. Yonma-yon kelgan bir xil undosh harfli so'zlarning tagiga chizing.



135-mashq. Tushirib qoldirilgan harflarni nuqtalar o'rniga qo'ying.

Balan..., ch...royli, sha...ar, olma...on,
sov...q, ya...malak, xursan..., op...oq,
jo'shq...n.



So'zlarni yozing. Shu so'zlardan foydalanib 2–3 ta gap tuzing.



136-mashq. O‘qing.

ENG MO‘TABAR QO‘SHIQ

Dunyoda bir qo‘shiq bor. U turli millat tillarida turlicha jaranglaydi. Bu qo‘shiq hammaga yoqadi. Qo‘shiqning nomi nima?



--	--	--	--



Qo‘shiq nomini toping. Yozing. Yonma-yon kelgan bir xil undoshli so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish uchun bo‘lib yozing.

137-mashq. Topishmoqning javobida yonma-yon kelgan bir xil undoshli cholg‘u asbobi nomini topasiz.

Kosasimon qorni bor,
Har sozandaga u yor.
Bir cho‘p bilan kuy tarar,
Tinglab ko‘ngillar yayrar.

Nabijon Ermatov



Shu so‘zni bo‘g‘inga bo‘lib yozing.



138-mashq. Maqollarni o‘qing. Mazmunini tushuntirishga tayyorlaning.

Tinchlik — farovonlik yo‘ldoshi.

Tinchlik bo‘lsa, yuz millat til topadi.

Tinchlik — taxt, sog‘lik — baxt.



Yozing. Yozganingizni tekshiring.



139-mashq. Quyidagi so‘zlarni tovush-harf yuzasidan namunadagidek tahlil qiling.

Kitob, bobo, quyosh, zilol, maktab, suv, kaptar, guruch, shamol, barg.

Namuna: kitob — 5 ta tovush, 5 ta harf bor. 2 ta unli, 3 tasi undosh tovush; harf ham 2 ta unli, 3 ta undosh harf; k — jarangsiz, t — jarangsiz, b — jarangli undosh tovushlardir.



140-mashq. Ikkita so‘zni tovush-harf yuzasidan tahlil qiling.

SO‘Z



So‘z nima, gap nima? Ularning o‘zaro farqini ayting.

141-mashq.

Ko‘chalardagi, maktabdagi, hovlingizdagi, uyingizdagi narsalarning nomini ayting.

Shu narsalardan ayrimlarining rangini, ta'm-mazasini, shaklini ayting.

Ayrim narsalarning harakatini ayting. Ko'r-gan narsalaringizni sanang.

Narsalar nomini, ularning belgisi, sanog'i yoki harakatini aytishda qaysi so'zlardan foyda-landingiz?

Tilimizda so'zlar nima uchun juda ko'p?

142-mashq. O'qing. So'z va gaplarni qiyoslang. So'z gapdan nimasi bilan farqlanadi?

So'zlar: kitob, do'st, asrang, u, o'rgatadi, yaxshi, o'qing, biz, g'amxo'r, besh.

Gaplar: kitobni yaxshi asrang.

U kishilarga irodasi kuchli hamda g'amxo'r bo'lishni o'rgatadi.

Kitob — bizning do'stimiz.



So'zlarni yozing.

So'zlar shaxs va narsa nomini, uning harakatini, belgisini, sanog'ini bildiradi: *yil, bo'linadi, saxiy, to'rt, olam, yigirma, chiroyli, kuylaydi, obod, rayhon, sakradi, shinam.*

143- mashq. Rasmlarni bir-biri bilan taqqoslaganda nimalarni ko'rdingiz?

Ularning nomini ayting.



Nuqtalar o'rniga *katta* yoki *kichik* so'zini qo'yib, gaplarni yozing.

Namuna: *O'rdak g'ozdan kichik.*

Ot tuyadan Sigir fildan Tulki quyondan Kaptar chumchuqdan



144-mashq. Rasmlardan savollarga javob toping.



Qaysi qush bahor elchisi?



Qaysi hasharot eng kam umr ko'radi?



Shu so'zlarni yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.



SHAXS VA NARSA NOMINI BILDIRGAN SO'ZLAR



145-mashq. Rasmga qarang. Unda kimlar va nimalarni ko'ryapsiz?



Kim? va nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni ayting.

Kim?

Nima?



Rasm bo'yicha gaplar tuzing va yozing.

Shaxs (kishi)lar nomini bildirgan soʻzlar k i m ? soʻrogʻiga javob boʻladi. K i m ? — *shifokor, dehqon, otboqar.*

Narsalar nomini bildirgan soʻzlar n i m a ? soʻrogʻiga javob boʻladi. N i m a ? — *uy, chumchuq, chumoli, ot.*



146-mashq. Oʻqing. Kim? va nima? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni ayting.

Bogʻ yashnaydi

Uy yashnaydi

Bogʻbon bilan.

Bola bilan.

Dala yashnar

Togʻ yashnaydi

Dehqon bilan.

Lola bilan.

Umarali Qurbonov



Yozing. Kim? va nima? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlar tagiga bitta chiziq chizing.



147-mashq. Sinfdagi narsalarning nomini ayting va yozing.

Sinf jihozlari: (nima?) *parta, ...*



Oʻquv qurollari: (nima?) *kitob, ...*

148-mashq. Oʻqing. Topishmoqlarning javobini toping.

Insonlarni boqar u,
Tovuqlarga yoqar u.



Ish quroli ustaning,
Boyligidir o'lkaning.



Javoblarni yonida so'rog'i bilan yozing.



149-mashq. O'qing. Yoddan yozishga tayyorlaning.

Ra'no kichkina hali,
Ishiga hamma hayron.
Qo'lda jajji **supurgi**,
Chinnidek **hovli**, ayvon.

Ilyos Muslim



Yoddan yozing. Tekshiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.



Qanday so'zlar kimlar? so'rog'iga javob bo'ladi?

150-mashq. Rasmlarga qarang. So'roqlarga javob bering.



Kim? Kim? Kimlar? Kimlar?



Avval kim? so'rog'iga, so'ngra kimlar?
so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.

Kim?

Kimlar?



Qaysi so'zlar *nimalar*? so'rog'iga javob bo'ladi?

151-mashq. Rasmlarni ko'rib chiqing. So'roqlarga javob bering.



Nima? Nima? Nimalar? Nimalar?



Avval *nima?* so'rog'iga, keyin *nimalar?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.

Nima?

Nimalar?

Birdan ortiq shaxsni bildirgan so'zlar kimlar? so'rog'iga javob bo'ladi.

Birdan ortiq narsani bildirgan so'zlar nimalar? so'rog'iga javob bo'ladi.

152-mashq. O'qing. Kimlar? yoki nimalar? so'rog'ini berib, ko'p shaxs va narsani bildirgan so'zlarni aniqlang.

Suv — tiriklik manbayi. Undan odamlar, hayvonlar, qushlar, bog'lar, ekinzorlar bahra oladi. Borliq yashnaydi.

Bolalar, suvdan tejamkorlik bilan foydalanishni o'rganing.



Yozing. Kimlar?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.



153-mashq. O'qing. So'roq berib, shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlarni aniqlang.

Kishilar qalam, ruchka, o'chirg'ich soladigan quticha o'ylab topganlar. Unga «qalamdon» deb

nom qo'yishgan. O'quvchilar unda yozuv qurollarini saqlaydilar.

! Gaplarni yozing. Kimlar? va nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.



154-mashq. Boshqotirmanini yeching.



! Hosil bo'lgan so'zlarni so'rog'i bilan birga yozing.

155-mashq. O'qing. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

Bizning Vatanimiz — O'zbekiston. Vatanimizda o'zbeklar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, ruslar, armanlar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, tatarlar va boshqa millat vakillari ahil yashaydilar, mehnat qiladilar.

! Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.



156-mashq. O'qing.

Keng dalalar, ...rmon, d...ngizlar,
G...lzor, bog'lar — bari bizniki.
Dar...o, ko'llar, serhosil y...rlar,
Ol...in to...lar hur ...limniki.

Shukur Sa'dulla



Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib ko'chiring. Nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

Nima uchun shoir hamma narsani *bizniki, elim-niki* deb ataydi?



157-mashq. To'rtta kim? so'rog'iga javob bo'lgan va to'rtta nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.



158-mashq. Rasmda tasvirlangan hayvonlarning nomini ayting.



Avval uy hayvonlari nomini, keyin yovvoyi hayvonlar nomini yozing.

Uy hayvonlari: *sigir*,

Yovvoyi hayvonlar: *yo'lbars*,


159-mashq. *Buzoq, bo'taloq, toychoq, qo'zichoq* qaysi uy hayvonlarining bolasi?



Hayvonlar nomini ularning bolalari nomi bilan yonma-yon yozing.

Namuna: *sigir* — *buzoq*,

160-mashq. Non dasturxonimizga kelguncha juda ko'p mehnat sarflanadi. Quyidagi boshqotirmadan shu «yo'l»ni topasiz.



Ushbu «yo'l»dagi kishilar mehnatini ham izohlab bering.



Bu so'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi? Ularni daftaringizga yozing. Nonni uvol qilmang!



161-mashq. She'rni o'qing.

Tegirmonning parragiday,
Chir aylandi yillar, oylar.
Qurdik yaxshi orzu bilan,
Dang'illama qo'sh saroylar.

Tursunboy Adashboyev



Yozing. Nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlab, tagiga chizing.

Chir aylandi yillar, oylar deganda nimani tushunasiz?



162-mashq. O'qing.

Bolalikda orzular mo'l bo'ladi. Kimdir shifokor, kimdir o'qituvchi, kimdir kulol, yana kimdir san'atkor bo'lgisi keladi. O'z ajdodlari kasb-u korini e'zozlagan elda aziz bo'ladi.



Yozing. Kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

163-mashq. O'qing.

QISHLOQLAR JAMOLI

Mumtozbek dadasi bilan qishloqqa mehmonga bordi.

Dadasining **do'sti** oilasi bilan yangi uyga ko'chib o'tishibdi.

Bu mahalladagi hamma **uy**lar bir xilda ekan. Ularda barcha qulayliklar muhayyo. Qishloqda yangi **maktab**, **poliklinika**, **sport saroyi** ham bor. Mumtozbek qishloqning chiroyiga havas qildi.



Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chiring. Yoniga so'rog'ini yozing.

164-mashq. O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang.

Davronboy oltiga kirgan Omonboy yana bir oydan so'ng to'rtga to'ladi bu ikki aka-uka to'glar etagidagi qishloqchada yashashadi

Xudoyberdi To'xtaboyevdan



Yozing. Kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

165-mashq. O'qing. K i m l a r ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

HUNARMANDLAR

Yurtimizda hunarmandlar juda ko'p. Gilamdo'zlar go'zal gilamlar to'qiydilar. Kulollar chiroyli idishlar yaratadilar. Zargarlar nafis taqinchoqlar yasaydilar. Ularning mehnati qadrlanadi.



Yozing. Gap kimlar haqida aytilganini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.



166-mashq. So'roqlar o'rniga mazmunga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni yozing. Shaxslarni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

(Kim?) ... paxta ekadi. (Kim?) ... kiyim tikadi. (Kim?) ... kasallarni davolaydi. (Kim?) ... rasm chizadi. (Kim?) ... bog'larni parvarish qiladi. 

167-mashq. Gaplarni o'qing. Qavs ichida berilgan ma'nosi bir xil so'zlardan mazmunga mosini tanlab, maqollarni yozing.

Namuna:



1. *Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam, odam mehnati bilan ko'rkam.*

1. Daraxt (bargi, yaprog'i) bilan ko'rkam, odam (ishi, mehnati) bilan ko'rkam. 2. Daryo suvini (bahor, ko'klam) toshirar, odam qadrini (ish, mehnat) oshirar. 3. (Ko'klam, bahor) ko'rkam fasl. 4. Duo bilan (el, xalq) ko'karar, yomg'ir bilan (yer, zamin) ko'karar.

168-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardan boshlab gaplar tuzing.

ingliz, astoydil, **Sanobar**, o'rganmoqda, tilini;

o'qiydi, **u**, ko'p, ham, adabiyotlarni, qo'shimcha;

ingliz, suhbatlashadi, tilida, bermalol;

dugonalari, o'rnak, ham, olishmoqda, undan.



Tuzgan gaplaringizni yozing. Shaxs nomini bildirgan so'zlarga so'roq bering.

169-mashq. Rasmlarga qarang. Narsalar nomini ayting.



Savollarga javob bering. Javobingizni yozing.

Bog'da nimalar pishadi?

Polizda nimalar yetishtiriladi?



170-mashq. Kim? yoki nima? so'roqlariga javob bo'lgan mazmunga mos so'zni nuqtalar o'rniga qo'yib, gaplarni yozing. Har bir gapni bosh harf bilan boshlashni unutmang.

(Kim?) ... stol, stul, rom yasaydi. (Kim?)
... kuy bastalaydi. Yaylovda (nima?) ... o'tlaydi.
Bog'da (nima?) ... sayraydi.





Tekshirish uchun soʻzlar: *duradgor, poda, bastakor, bulbul.*

171-mashq. Rasimli diktantni yozing.



1. turdi.



2. Osmonni qopladi.



3. Kuchli yogʻdi.



4. Bolalar tutdilar.



5. tindi.



6. chiqdi.



Nima? soʻrogʻiga javob soʻzlarning tagiga chizing.



KISHILARNING ISMI VA FAMILIYASIDA BOSH HARF

Qaysi soʻzlar bosh harf bilan boshlanadi?



172-mashq. Oʻqing.

Xalqimiz azal-azaldan sanʼatning barcha tur-larini qadrlab kelgan. Ayniqsa, mumtoz musiqa va qoʻshiqlarimiz, raqs sanʼatimizga alohida mehr qoʻygan.

Yunus Rajabiy, Halima Nosirova, Komiljon Otaniyozov, Maʼmurjon Uzoqov, Turgʻun Ali-

matov, Mukarrama Turg'unboyeva, Tamara-xonim kabi ko'plab san'atkorlarimizni e'zozlaganlar. O'zbek san'atkorlari nafaqat yurtimiz, balki dunyo xalqlari hurmatiga ham sazovor bo'lganlar.

San'atkorlarning ismi va familiyasini yozib oling. Bosh harflarning tagiga chizing.

Kishilarning ismi va familiyasi **bosh harf** bilan boshlab yoziladi.

173-mashq. Gaplarni o'qing.

Qurolli kuchlarimiz jonajon O'zbekistonimizning qo'riqchilaridir. Ular xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini saqlaydilar. Akalarim Elshod va Durbek harbiy xizmatdalar.



Yozing. Qurolli kuchlarimiz haqida nimalarni bilasiz? So'zlab bering.

Yozganingizni tekshiring. Qaysi so'zlar bosh harf bilan boshlangan?

Shu so'zlarning yozilishiga e'tibor bering.



174-mashq. So'zlarni o'qing. Ismlarni yozib, to'g'ri yozilishini yodda tuting.

Muhabbat, Bahrom, Nilufar, Ahror, Davron, E'tibor, Vohid, Hilola, Ravshan.



175-mashq. Rasmlarni ko'rib chiqib, bolalarga ism qo'ying. Savollarga javob bering.



Kaptarlarga kim don beryapti?
... kaptarlarga don beryapti.
Kimlar koptok o'ynayapti?
... va ... koptok o'ynashyapti.



Nuqtalar o'rniga bolalar ismlarini qo'yib, javobingizni yozing.

176-mashq. O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Nechta gap o'qidingiz?

Gulnora Murodovanning Hilola degan singlisi bor u kichkina va sho'x Gulnora singlisiga Shukur Sa'dullaning jajji hikoyalaridan birini o'qib

berdi hikoya qahramoni Hayotjon Hilolaga juda yoqdi



Gaplarning oxiriga nuqta qo'yib, yozing. Tekshiring.



177-mashq. O'ylang, ismlar hosil qilish uchun qaysi harflarni qo'shish kerak?

		O	S	I	M
		A	Z	I	Z
	U	Y	G'	U	N

S	A	I	D		
X	O	L	I	D	
K	A	M	O	L	



Hosil bo'lgan ismlarni yozing. Oralariga vergul (,) qo'ying. Tekshiring.



178-mashq. O'qing.

CHIN DO'STLAR

Xayrulla va Akmal bir sinfda o'qishadi. Ular qalin do'st.

Akmal shamollab, kasal bo'lib qoldi. Kasali biroz cho'zildi. Shuning uchun darslardan ham qolib ketdi. Xayrulla maktabdan kelgach, Akmalga o'zi olgan saboqlarni o'rgata boshladi.

Akmal qoldirilgan darslarni o‘zlashtirib oldi. U chin do‘stiga yordami uchun minnatdorchilik bildirdi. Sinfdoshlari ularga havas qilishdi.



Savollarga javob bering va javobingizni yozing.

1. Kimlar qalin do‘st?
2. Xayrulla do‘stiga qanday yordam berdi?
3. Kimlar ularga havas qilishdi?

Kishi ismlarining yozilishini eslab qoling.



179-mashq. O‘qing.



Mamlakatimizda sportga katta e‘tibor qaratilgan. Bunga javoban bahodirlarimiz yurtimiz qudratini dunyoga namoyish qilmoqdalar. Ular orasida erkin kurashchilar Artur Taymazov, Soslan Tigiyev, bokschi Abbos Atoev, dzyudochi Rishod Sobirovlar bor. Biz ular bilan faxrlanamiz.



Yozing. Kishilar ismi va familiyasini bildirgan so‘zlarning tagiga chizing.



180-mashq. Nuqtalar o‘rniga mazmunga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni bosh harf bilan boshlab yozing.

1. soatlarni tuzatadi.
2. daraxtlarni parvarishlaydi.
3. avtobus haydaydi.
4. to‘r bilan baliq tutadi.



Qo‘yish uchun so‘zlar: *bog‘bon Majid A‘zamov, soatsoz Bahodir Sodiqov, haydovchi Valijon Ahmedov, baliqchi To‘lqin Saidov.*

Nima uchun *soatsoz, bog‘bon* deyiladi?

Kishilar ism va familiyasini alifbo tartibida yozing.

181-mashq. So‘zlardan gaplar tuzing.

she‘rlarini, o‘qiymiz, sevib, Quddus Muham-madiyning;

ertagini, Hamid Olimjonning, Said, o‘qidi, «Oygul bilan Baxtiyor»;

Anvara, va, ko‘rdilar, Ra‘no, filmni, haqi-dagi, Alisher Navoiy.



Gaplarni yozing. Qaysi so‘zlarni bosh harf bilan boshladingiz? Nima uchun? Yozganingizni tekshi-ring.



182-mashq. Sinfingizdagi o‘quvchilar bajaradigan ishlar haqida gaplar tuzing.

Namuna: *Marhamat sinf kutubxonasiga qaraydi.*



HAYVONLARGA QO'YILGAN NOMLARDA BOSH HARF

183-mashq. O'qing.

Uy hayvonlari: ot, sigir, mushuk, it, echki, qo'y.

Hayvonlarga qo'yiladigan nomlar: G'irko'k, Boychibor, Qashqa, Malla, Momiq, Mosh, Ziyrak, Olg'ir, Tarlon.



Hayvonlarga qo'yiladigan nomlarni ko'chiring.

Hayvonlarga qo'yilgan nomlar **bosh harf** bilan yoziladi: *G'irko'k, Mosh, Tarlon.*

184-mashq. O'qing.

Matlubaning uyida Yo'lbars nomli iti va Ziyrak, Mosh nomli mushuklari bor. Matluba ularga mehribon.

Davron esa ot boqishga qiziqadi. Bo'sh qoldi deguncha buvasining Qorabayir, Boychibor nomli otlari yoniga yuguradi.

Otlarni cho'miltiradi, ularga yem beradi. Bu ishlar Davron uchun juda zavqli.



Birinchi qismni yozing. Hayvonlarga qo'yilgan nomlarning tagiga chizing.

185-mashq. O'qing. Hayvonlar nomini bildirgan so'zlarni aniqlang.

Sirk maydoni. Qiziqchi iti Olg'ir, mushugi Qoramosh, maymuni Chita bilan chiqdi.

Ularning ketidan aravachaga qo'shilgan ayig'i Maymoq yugurib keldi. Olg'ir, Qoramosh, Chita aravachaga o'tirib olishdi. Tomoshabinlar ularni olqishladilar.



Har bir hayvonni nomi bilan yonma-yon yozing.

Namuna: *it — Olg'ir, ...*



186-mashq. Gaplarni o'qing. Hayvonlarga qo'yilgan nomlarni ayting.

Haydovchi ertasi kuni Husanga kiyik va qop-qora, chiroyli kuchuk keltirib berdi.

Bolalar kiyikka Yulduz deb, kuchukka esa Arslon deb nom qo'yishdi.

Yoqubjon Shukurov



Yozing. Hayvonlarga qo'yilgan nomlarni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.



187-mashq. Gaplarni o'qing.

Omon bilan Ozoda — aka-singil. Omonning ziyrak iti bor. Unga Olapar deb nom qo'ygan.

Singlisining Popuk degan mushugi bor. Popuk bilan Olapar bir-biriga juda o'rganishgan.



Bosh harf bilan yozilgan so'zlarni aniqlang. Ular nima uchun bosh harf bilan yozilganini tushuntiring. Yozing.

188-mashq. O'qing. Hayvonga qo'yilgan nomni bildirgan so'zni aniqlang.

GULDOR

Jambul yugurib borib kuchuk bolani oldi. Hali ko'zi ochilmagan ekan. Peshonasida gulga o'xshagan qashqasi ham bor. Uyga olib keldi. Uch-to'rt kun deganda ko'zi ochildi.

O'zicha kuchukchaga Guldor deb ot ham qo'yib oldi. Hozir Guldor katta bo'lib qolgan. Hovlimizning sodiq qorovuli.

Mahmud Murodov



Savollarga javob bering va javobingizni yozing.

1. Jambul nimani oldi?
2. Jambul kuchukchaga qanday nom qo'ydi?
3. Guldor hozir nima qiladi?



189-mashq. Gaplarni o'qing. Mazmuniga mos so'zlarni nuqtalar o'rniga qo'yib, ularni yozing.

O'ktamning iti ...
qattiq vovullaydi.
Singlimning mushugi ...
erkalanib miyovlaydi.
Akam otiga ... deb nom
qo'ygan.

Boychibor
Ziyrak
Momiq



Hayvonlarga qo'yilgan nomni bildirgan so'zlar tagiga bitta to'g'ri chiziq chizing.



SHAHAR, QISHLOQ, KO'CHA, DARYO NOMLARIDA BOSH HARF

190-mashq. So'z birikmalarini o'qing.

Toshkent shahri, Buxoro shahri, Xumson qishlog'i, Do'stlik ko'chasi, Zarafshon daryosi.



Yozing. Shahar, qishloq, ko'cha va daryoga qo'yilgan nomlarni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

Shahar, qishloq, ko'cha va daryo nomlari
bosh harf bilan yoziladi.

191-mashq. Gaplarni o'qing.

O'zbekiston — yam-yashil diyor. Hayotbaxsh Amudaryo bilan Sirdaryo butun o'lka bo'ylab

oqib o'tadi. Chirchiq, Zarafshon, Norin daryolari Toshkent, Samarqand, Namangan, Kattaqo'rg'on kabi shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlaydi.



Yozing. Qaysi so'zlarni bosh harf bilan yozdingiz? Nima uchun?

192-mashq. So'z birikmalarini o'qing va yozing. Bosh harf bilan boshlangan so'zlarning tagiga chizing.

Navoiy shahri, Amir Temur xiyoboni, Bobur ko'chasi, Mustaqillik maydoni, Oybek ko'chasi.



Bu shahar, xiyobon, ko'chalar kimlarning sharafiga shunday nomlangan? Mustaqillik maydoni-chi?

193-mashq. Gaplarni o'qing.



Men Toshkent shahrining Tinchlik ko'chasida turaman. Mening otam — Jo'rayev Shuhratjon. Onam — Abdullayeva Muhayyo.

Buvim — Ahmedova Muhabbat G'azalkentda yashaydi.



Quyidagi namunaga qarab, o'zingiz haqingizda yozing.

Namuna: *mening ismim — Men ... shahrida (qishlog'ida), ... ko'chasida turaman. Onamning ismi — Otamning ismi —*

194-mashq. Matnni o'qing, unga sarlavha toping.

Bobomiz Alisher Navoiy 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan.

Bolalik chog'laridayoq hammaning e'tiboriga tushgan. Juda odobli bo'lgan. Ko'p kitob o'qigan. Zehni o'tkir bo'lgan. Minglab misra she'rni yod bilgan. Kichiklikda yozgan she'rlariga us-tozlari ham katta baho bergan.

Po'lat Mo'min



Savollarga javob bering.

1. Bobomiz Alisher Navoiy qachon, qayerda tug'ilgan?
2. Bobomiz hammaning e'tiboriga tushganining boisi nimada?



Yozing. Joy nomini bildirgan so'zning tagiga chizing.



195-mashq. O'qing. Bosh harf bilan yozilgan so'zlarga e'tibor bering.

DO'PPI

Do'ppi — yengil bosh kiyimi. U milliy kiyim hisoblanadi. O'zbekistonda Chust, Andijon,

Toshkent, Marg‘ilon, Samarqand, Buxoro, Boy-sun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur.



Yozing. Joylarga qo‘yilgan nomlarning tagiga chi-
zing. O‘rganilgan qaysi mavzu yodingizga tushdi?



196-mashq. Rasmlarni ko‘rib chiqing.



Berilgan reja asosida uch bo‘limli og‘zaki hikoya
tuzing.

Reja

1. Aka-singil holsiz yotgan qushchani ko‘rib qoldilar.
2. Ular qushchani uyda parvarish qilishdi.
3. Qushchani uchirib yuborishdi.

O‘qing.

Elyor va uning singlisi Nilufar bog‘da ay-
lanib yurishardi. Ular qor ustida holsiz yotgan
qushchani ko‘rib qolishdi. Nilufar qushchani

qo'liga oldi. Aka-singil uni uyga olib kelishdi. Qushchani yaxshi boqishdi. Bahor keldi. Kunlar isidi. Ular qushchani qo'yib yuborishdi.



O'qiganlaringizni uch qismga bo'ling va har bir qismni xatboshidan boshlab yozing. Yozganingizni tekshiring.

197-mashq. Savollarga javob yozing.

1. Siz qaysi alloma bobokalonlarimizni bilasiz? 2. Ularga munosib avlod bo'lish uchun nimalar qilmoqdasiz?




Allomalarimizning nomlarini bildirgan so'zlarning tagiga chizing. Bosh harf bilan yoziladigan so'zlarni izohlab bering.



SHAXS VA NARSA HARA-KATINI BILDIRGAN SO'ZLAR



198-mashq. Rasmga qarang. Bolalarga ism qo'ying va hikoya tuzing.



Hikoyani o'qing.

QISHDA

Qor ko'p yog'di. Kun sovidi. Yer muzladi. Bolalar sevindilar va tepalikka yugurdilar.

Ana, Vazira Qorbobo yasayapti. Latofat chana uchyapti. Vahob konki uchyapti.

Qish ham maza!



Shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlarni toping. Ular qanday so'roqlarga javob bo'lyapti?

Narsa va bolalar bajarayotgan harakatni bildirgan so'zlarni aniqlang. Shu so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'lyapti?



199-mashq. «Qishda» sarlavhali hikoyadan o'qing. Nima qildi?, nima qildilar? va nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang va yozing.



Namuna: nima qildi? *Yog'di, ...*

Nima qildilar? *Sevindilar, ...*

Nima qilyapti? *Yasayapti, ...*

Nima qildi?, nima qildilar?, nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiriyapti?

Shaxs va narsalarning harakatini bildirgan soʻzlar nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? soʻroqlariga javob boʻladi. Nima qildi? — *yozdi, uchdi*; nima qilyapti? — *yozyapti, uchyapti*; nima qiladi? — *yozadi, uchadi*.



200-mashq. Topishmoqni oʻqing, javobini toping.

Loy boʻlib suyuladi,
Qolipda quyiladi.
Xumdon-pechda pishadi,
Mashinaga tushadi,
Qurilishga ketadi.



Topishmoqni topishda sizga qaysi soʻzlar yordam berdi? Bu soʻzlar nimani bildiradi? Ular qanday soʻroqqa javob boʻladi? Harakatni bildirgan soʻzlarni yozing.

Namuna: nima qiladi? *Suyuladi*, ...



201-mashq. Harakatni bildirgan soʻzlarni nuqtalar oʻrniga qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

Qishda kunlar (nima qiladi?)... .

Qor koʻp (nima qiladi?)... .

Suvlar (nima qiladi?)... .



202-mashq. O'qing.

Yer tabiatning uch faslida xayrli mehnat qiladi. Qish kunlarida miriqib dam oladi.

Qor va yomg'ir namplarini yig'adi, kelgusi yil hosili uchun asraydi. O'zida kuch to'playdi.

Bahor kelishi bilan insonga o'z bag'rini ochadi. Saxiylik bilan mehrini sochadi.

Yayra Sa'dullayeva



Savollarga javob topib o'qing.

1. Yer uch faslda nima qiladi?
2. Qish kunlarida-chi?
3. Bahor kelishi bilan nima qiladi?



Savollarga javobingizni yozing. Harakatni bildirib, nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar tagiga chizing.



203-mashq. O'qing.

Bog'larda, xiyobonlarda sayr qilish kishiga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Yurak faoliyatini yaxshilaydi. Kayfiyatini ham ko'taradi.



Gaplarni yozing. Harakatni bildirgan so'zlarni aniq-lang va tagiga ikkita chiziq chizing. Yozgan-laringizni tekshiring.



204-mashq. Rasmlarga qarang.



Nima qilyapti?

Nima qilyaptilar?



Birinchi rasmda harakatni necha kishi bajaryapti?

Ikkinchi rasmda-chi?

Harakatni bildirgan soʻzlar qanday soʻroqlarga javob boʻlyapti?

Bir shaxs bajargan, harakatni bildirgan soʻz nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? soʻroqlariga javob boʻladi. Nima qildi? — *oʻqidi*, nima qilyapti? — *oʻqiyapti*, nima qiladi? — *oʻqiydi*.

Agar soʻz birdan ortiq shaxslar bajargan harakatni bildirsa, nima qildilar?, nima qilyaptilar?, nima

qiladilar? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Nima qildilar? — *yozdilar*, nima qilyaptilar? — *yozyaptilar*, nima qiladilar? — *yozadilar*.

205-mashq. Mazmunlarga mos harakatni bildirgan so‘zlarni davom ettiring va ularni yozing.

O‘quvchi nima qiladi? *O‘qiydi*,

O‘quvchilar nima qiladilar? *O‘qiydilar*,

206-mashq. Topishmoqlarning javobini toping.

Qishda yaxlaydi, yozda eriydi.

s		v
---	--	---

Yozda kiyinadi, qishda yechinadi.

d					t
---	--	--	--	--	---

Qanoti yo‘q uchadi, oyog‘i yo‘q chopadi.

sh				l
----	--	--	--	---



Topishmoqlarni yozing. Nima qiladi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarning tagiga ikkita chiziq chizing.



207-mashq. Mazmunga mos hayvon nomini nuqtalar o‘rniga qo‘yib, gaplarni yozing. Gaplarni bosh harf bilan boshlashni unutmang.

... miyovlaydi. ... vovullaydi. ... ma'raydi.
... kishnaydi.



Harakatni bildirgan so'zlar tagiga ikkita chiziq chizing.



208-mashq. O'qing. Tushirib qoldirilgan harflarni nuqtalar o'rniga qo'yib, she'rni yozing.

Soylar to'li... oqadi.
Bog'lar kuli... boqadi.
Bizga juda yoqadi
Chamanzor har yoq.

Anvar Bo'riboyev



Harakatni bildirgan so'zlarning tagiga chizing. Ularga so'roq bering.

Bog'lar kulib boqadi gapini qanday tushunasiz?

209-mashq. So'zla, tik, ko'r, chal, uxla so'zlarini nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so'roqlariga moslab o'zgartiring.

Nima qildi? *Tikdi*,
Nima qilyapti? *Tikyapti*,
Nima qiladi? *Tikadi*,



Shu so'zlardan bittasi ishtirokida gap tuzing va yozing.



210-mashq. Nuqtalar o'rniga mazmunga mos so'zlarni tanlang.

Nima? ... kishnaydi, yo'rg'alaydi, chopadi.
Nima? ... qurillaydi, sakraydi, suzadi.



Gaplarni yozing. Birinchi gap nima haqida aytilgan? U haqida nimalar deyilgan? Ikkinchi gap-chi?



211-mashq. Matnni o'qing. Diktant yozishga tayyorlaning.

SARISHTA QIZ

Dilshoda tozalikni juda yoqtiradi. U har kuni uy va hovlilarni supuradi. Narsalarni o'z joyiga qo'yadi. Oshxonada oyisiga yordamlashadi. Idish-tovoqlarni toza yuvadi. Darslarini ham o'z vaqtida tayyorlaydi.



212-mashq. O'qing. Javobini toping.



Qizimning «qizalog'i»,
Goh-goh yig'lar, yemaydi.
Biz tamaddi qilganda,
Menga bering demaydi.

Nabijon Ermatov



Topishmoqni yozing. Javobini yozing.
Harakatni bildirgan soʻzlarning tagiga chizing.

213-mashq. Oʻqing.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur bolaligidan otni ardoqladi. U ot bilan sirlashib ulgʻaydi. Bu haqida oʻzining «Boburnoma» asarida yozgan. Bobur oʻn yoshida yurib ketayotgan ot ustida raqs tusha olgan.

Abdulla Chimirzayev



Yozing. Harakatni bildirgan soʻzlarning tagiga chizing.

Siz ham biror uy hayvoniga mehr qoʻyganmisiz?

214-mashq. Oʻqing va davom ettiring.

Kishining qanday odamligi uning hayvonlarga boʻlgan munosabatidan bilinadi...



Fikrlaringizni yozing va harakatni bildirgan soʻzlarning tagiga ikkita toʻgʻri chiziq chizing.



215-mashq. Oʻz orzularingiz va kelajakdagi rejalaringiz haqida uch-toʻrtta gap yozing. Harakatni bildirgan soʻzlarning tagiga ikkita toʻgʻri chiziq chizing.



216-mashq. Rasmni koʻzdan kechiring.



Reja bo'yicha hikoya tuzing.

Reja

1. Shohida idishlarni yuvayotgan edi.
2. Ukasi oshxonaga kirdi.
3. Hikoyani davom ettiring...

O'qing.

Kechki ovqatdan keyin Shohida idishlarni yuvayotgan edi. Suvning bosim bilan oqayotganini eshitgan ukasi Azizbek oshxonaga kirdi.

— Opa, qarang, suv bekorga oqib ketyapti, tugab qolsa nima qilamiz? — dedi u...

Sh. Karimova

Hikoyani o'zingiz davom ettirib yozing. Harakatni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

217-mashq. Mazmunga mos qush nomlarini qo'yib, gaplarni yozing. Harakatni bildirgan so'zlar tagiga chizing.

... chirqillaydi. ... qag'illaydi. ... kukulaydi.
... chiroyli sayraydi.



Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: *olaqarg'a, chumchuq, kakku, bulbul.*



218-mashq. Maqollarni o'qing.

Kamtar bo'lsang, obro' ortar,
Manman bo'lsang, ensa qotar.

Ko'kka boqma, ko'pga boq.



Ularni yozing va o'ylab ko'ring. Maqollarning mazmunini qanday tushuntirish mumkin?

Ortar, boq so'zlariga yaqin ma'noli so'zlar tanlang.



219-mashq. Savollar asosida hikoya qilib bering.

1. Sen ertalab nima qilding?
2. Hozir nima qilyapsan?
3. Kechqurun nima qilasan?



Hikoyangizda shaxsning harakatini bildirgan qaysi so'zlardan foydalandingiz? Shu so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

220-mashq. Gaplarni o'qing.

Xalqimiz do'stlikni qadrlaydi. O'zaro inoq yashaydilar. Farovon va baxtli hayot kechiradilar.



Yozing. Yozganingizni tekshiring.

Harakatni bildirgan so'zlar tagiga ikkita to'g'ri chiziqli chizing.

221-mashq. Berilgan so'zlardan ikkita gap tuzing va yozing.

Vatanimiz, bizning, va, bepoyon, serquyosh; sevadi, mehnatni, xalqimiz.



Birinchi gap nima haqida aytilgan?

Ikkinchi gap kim haqida aytilgan? Xalqimiz haqida nima deyilgan?



222-mashq. O'qing.

Tili yo'q, oyog'i yo'q,

Hisoblaydi, yuradi.

Kecha-kunduz yursa ham

U bir joyda turadi.

s			
---	--	--	--



Topishmoqni yozing, javobini yozing. Tekshiring.

Harakatni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.



223-mashq. O'qing.**KASHTAN DARAXTI**

O'zbekistonda kashtan manzarali daraxt sifatida ekiladi. Uning ko'rinishi juda chiroyli. Havoni tozalaydi.

Kashtan urug'idan ko'paytiriladi. Ayrim navlari payvand qilinadi. Shox-shabballari keng, bargi oddiy, yirik bo'ladi. Barg chiqargandan keyin gullaydi.

Uning gullaridan asalarilar shira yig'adilar.

Bu asal o'ziga xos xushbo'y bo'ladi.



Yozing. Harakatni bildirgan so'zlarni aniqlab, tagiga ikkita to'g'ri chiziq chizing.

224-mashq. O'zingiz yoqtirgan daraxtni yozma tasvirlang.



225-mashq. Harakat bildirgan so'zlardan oltitasini yozing.



226-mashq. Tez aytishlarni yodlang.

**Qobil qizil sabzilarni
qirg'ichda qirdi.**



**Oqil oq qog'ozdan
oq g'oz yasadi.**

D. Kamoljonova



Yoddan yozing. Harakatni bildirgan soʻzlarning tagiga chizing.



Savollarga javob bering.

1. Shaxs va narsalarning harakatini bildirgan soʻzlar qanday soʻroqlarga javob boʻladi?
2. «Navroʻz bayrami» haqida nimalarni bilasiz? Gap-
lar tuzib yozing.



Ikki-uchta tez aytish topib, daftaringizga yozib keling.



SHAXS VA NARSA BELGISINI BILDIRGAN SOʻZLAR

227-mashq. Rasmga qarang. Nimalarni koʻr-
yapsiz?



Savollarga javob bering. Javobingizni yozing.

Qanday *bino*? *Katta, hashamatli bino.*

Qanday *ko'cha*?

Qanaqa *daraxt*?

. . .

Shaxs va narsa belgisini bildirgan so'zlar qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladi. Qanaqa? *Yashil, ko'rkam* daraxt. Qanday? *Katta, hashamatli* bino.



228-mashq. O'qing. Narsaning belgisiga qarab, topishmoqning javobini toping.

Usti yo'l-yo'l, sariq, ko'k,
Beqasamga o'xshaydi.

Shirinligi til yorar,
Hidi o'tkir, bo'yi past.

h							
---	--	--	--	--	--	--	--



Topishmoq handalak haqida ekanligini qaysi so'zlar orqali bildingiz? Shu so'zlarga narsani bildirgan so'zlar orqali so'roq bering: *usti* (q a n d a y?) *yo'l-yo'l*; *rangi* (q a n a q a?) *sariq*, *ko'k*; *hidi* (q a n a q a?) *o'tkir*; *bo'yi* (q a n d a y?) *past*.

Topishmoqni yozing. Handalakning belgisini bildirgan so'zlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.



229-mashq. O'zingiz yoqtirgan gulning belgilarini yozing



230-mashq. O'qing va qaysi hayvon (nima) haqida yozilganini aniqlang.

Uning qulog'i uzun, dumi kalta. Terisi yozda kulrang, qishda oq.



Gap quyon haqida ekanini qaysi so'zlar orqali bildingiz? Bu so'zlar nimani bildiradi? Qaysi so'roqqa javob bo'ladi?

Masalan: *qulog'i* (qanday?) *uzun*,

Yozing. Narsaning belgisini bildirgan so'zlar tagiga chizing.

231-mashq. Biror uy hayvonining belgilarini yozing.



232-mashq. O'qing. Tez aytishga tayyorlaning.

O'ktam ko'm-ko'k ko'rkam ko'klam rasmini ko'm-ko'k qalamda chizdi.



Gapni yozing. Q a n a q a ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing. Shu so'zlar nimani bildiriyapti?

Ko'klam so'zini xuddi shunday ma'noli qaysi so'z bilan almashtirish mumkin?



233-mashq. Berilgan so'zlardan gap tuzing va yozing.

keltirdi, otam, baliqchalar, ko'k, chipor, qora, qizil;

akvariumga, soldik, baliqchalarni, biz; suzishdi, baliqchalar, o'tlar, yam-yashil, orasida.



Baliqchalar belgisini bildirgan so'zlarni aniqlab, to'liqinli chiziq bilan belgilang.

234-mashq. Qanday?, nima?, nima qiladi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar ishtirokida gap tuzing va yozing.

Namuna: *Mayin shamol esadi.*

Mayin, yam-yashil, sayroqi; shamol, qushlar, o'tloq; kuylaydi, yashnaydi, esadi.



Narsani bildirgan soʻzning tagiga bitta toʻgʻri chiziq, uning belgisini bildirgan soʻzning tagiga toʻlqinli, harakatni bildirgan soʻzning tagiga ikkita toʻgʻri chiziq chizing.



235-mashq. Sheʼriy topishmoqni oʻqing. Javobini toping.

— Mayda, yoqutday qizil,
Shirin, nordon, xilma-xil.
Qalin, taxir poʻsti bor,
Hamma yerda doʻsti bor.
Sen ayt-chi, qizim Gulnor!

— Bumi, dadajon,

a			
---	--	--	--

Gʻafur Gʻulom

Sheʼrdagi topishmoq javobini qaysi soʻzlarga asoslanib topdingiz? Shu soʻzlar nimani bildiradi?



Nuqtalar oʻrniga javob soʻzni yozib, sheʼrni yozing. Qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlar tagiga toʻlqinli chiziq chizing.

236-mashq. Oʻqing.



ZULFIYAXONIM QIZLARI

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti har yili 28 nafar qizga beriladi. Ular adabiyot, ma-

daniyat, san'at, fan, ta'lim, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida **alohida** yutuqlarga erishgan **iqtidorli** qizlardir. Bu qizlar **a'lo** xulqi, o'qishi, zukkoligi, donoligi bilan ajralib turadilar. Kelajakda ana shunday qizlar qatoriga siz ham qo'shilishingiz mumkin.



Yozing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.



237-mashq. She'rni o'qing.

Ona — mehr timsoli,
Saxiy quyosh misoli —
Barchaga mehrin sochar,
Barchaga bag'rin ochar.

Ona — mehr timsoli,
Shirin so'zlari — boli.
Farzandga shirin so'z der,
Farzandlar g'amini yer.

Fazliddin Po'latov



Yozing. Belgini bildirgan so'zlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.



238-mashq. Mazmunga mos so'zlarni qo'yib, hayvonlarni tasvirlang va yozing.

(Q a n d a y ?) *Kichkina, chaqqon, malla* olmaxon.

(Q a n d a y ?)... quyon. (Q a n d a y ?)... bo'ri.

(Q a n a q a ?)... tulki.

239-mashq. Ikki narsani qarama-qarshi belgisiga ko'ra qiyoslang. Mazmunga mos so'zlarni qo'yib gaplarni yozing.

Rangiga ko'ra. *Ko'mir (q a n a q a ?) qora, bo'r esa (q a n a q a ?)... .*

Mazasiga ko'ra. *Garmdori (q a n d a y ?) achchiq, qand esa (q a n d a y ?)... .*

Shakliga ko'ra. *Qarg'a (q a n d a y ?) katta, chumchuq esa (q a n d a y ?)*



Har qaysi gapdagi narsaning belgisini bildirgan so'zlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Narsalarning belgisini bildirgan so'zlar orasida qarama-qarshi ma'noli so'zlar ham bor. *Yozda issiq, qishda esa sovuq.*



240-mashq. Qarama-qarshi ma'no bildirgan *yumshoq — qattiq, katta — kichik, past — baland* so'zlaridan foydalanib, uchta gap tuzing.



241-mashq. «O‘qish kitobi»dan matn tanlang. Undan belgi bildirgan so‘zlarni topib yozing.

242-mashq. O‘qing.

Tor yo‘lakdan o‘tib, qutidekkina shinam hovliga kirasiz. Ariq tortib ekilgan rayhonlar belga uradi. Oshrayhon, sadarayhon, oq rayhon, qora rayhon. Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o‘rik bor.

O‘tkir Hoshimov



Yozing. Narsaning belgisini bildirgan so‘zlarning tagiga chizing.



243-mashq. Shinam hovlini tasvirlab gaplar tuzing.

244-mashq. Rasmlarga qarang.



Reja bo‘yicha uch bo‘limli og‘zaki hikoya tuzing.

Reja

1. Bahor keldi.
2. Bolalar yasagan inlarini daraxtga oʻrnatdilar.
3. Ular qanotli doʻstlarini koʻrib sevindilar.

Oʻqing. Hikoyani uch boʻlimga boʻling.

Bahor keldi. Issiq oʻlkalarga uchib ketgan qushlar qayta boshladilar. Bolalar qushlarga in yasadilar. Inni daraxtga oʻrnatdilar. Unga don ham sohib qoʻydilar. Qushlar inga qoʻnib, maza qilib donlashdi. Bolalar ularni koʻrib juda sevindilar.



Har bir boʻlimni xatboshidan yozing. Tekshiring.



245-mashq. Maqollarni oʻqing. Belgini bildirgan soʻzlarni aniqlang.

Oʻrganish oson, oʻrgatish qiyin.

Toʻgʻri odam egri soʻzdan or qilar.



Yozing. Qanday? soʻrogʻiga javob boʻlgan, qarama-qarshi maʼno bildirgan soʻzlarni aniqlang va tagiga chizing.



246-mashq. Berilgan soʻzlardan bahor, shamol, quyosh, maysa haqida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan hikoya hosil boʻlsin.

Go‘zal, yoqimli, kuchli, ko‘m-ko‘k; bahor, shamol, quyosh, maysa; keldi, esdi, qizdirdi, ko‘kardi.



Hikoyaga sarlavha qo‘yib yozing. Narsalar belgisini bildirgan so‘zlarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.



247-mashq. She’rni o‘qing. Narsalar nomini, belgisini, harakatini bildirgan so‘zlarni aniqlang va yozing.

Tugmachagul, boychechak,
Qizil, pushti gul, chechak.
Oq nastarin, gulxayri –
Bog‘da o‘sadi bari.
Yoqimli hid sochadi,
Bahri dilni ochadi.

Musharraf Zayniddinova



Narsalar nomini bildirgan so‘zlar:

n i m a ? *tugmachagul*,

Narsalar harakatini bildirgan so‘zlar:

n i m a q i l a d i ? *o‘sadi*,

Narsalar belgisini bildirgan so‘zlar:

q a n a q a ? *qizil*,



248-mashq. «Imlo lug‘ati»dan 6 ta belgi bildirgan so‘z topib yozing.



249-mashq. Rasmga qarab, maqolni o'qing.



Qarama-qarshi ma'noli so'zlarning tagiga chizing.

250-mashq. Ikkita uy hayvonini tanlang. Ularning belgilarini qiyoslab yozing. Belgini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.



251-mashq. Qarama-qarshi ma'noli belgi bildirgan so'zlarga misollar yozing.



252-mashq. O'qing.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, mittigina gul bor ekan. U mayin tuproq ko'rpasiga burkanib uxlashni yaxshi ko'rarkan.

Bir kuni uxlayverib-uxlayverib zerikib ketibdi.

Ko'rpasini ko'tarib, bunday mo'ralasa, osmonda yop-yorug', issiq bir narsa yaraqlab turganmish...

O'tkir Hoshimov



Yozing. Narsa belgisini bildirgan soʻzlarni ajratib olib, yoniga soʻrogʻi bilan yozing.

253-mashq. Sheʼrni oʻqing. Yoddan yozishga tayyorlaning.

LAYLAGIM

Uzun tumshuq laylagim,
Kelar birga oʻynagim.
Loy, balchiqni kechmagin,
Kir boʻlar oq koʻylaging.

Vali Ahmadjon



Yoddan yozing. Belgini bildirgan soʻzlarning tagiga chizing.



SANOQ VA TARTIBNI BILDIRGAN SOʻZLAR



254-mashq. Gaplarni oʻqing.

Tok koʻchati oʻtqazilgandan soʻng **uchinchi** yili hosilga kiradi. Yetilgan tokdan **yuz** kilogrammgacha uzum hosili olinadi.

Bir bosh uzum **sakkiz yuz** gramm boʻlishi mumkin. Uzunning husayni, qirmiska kabi navlari **uch-toʻrt** oy buzilmay saqlanadi.



Qancha?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga namunadagidek yozing.

Namuna: (Nechanchi?) *Uchinchi yili,*
(qancha?) *yuz kilogramm.*

255-mashq. Gaplarni o'qing. Nechanchi? va qancha? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

Abbos o'n beshinchi maktabning ikkinchi sinfida o'qiydi. Bu sinfda yigirma olti o'quvchi ta'lim oladi. Ulardan o'n bitta o'quvchi a'lochi.



Nechanchi? va qancha? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

Namuna: (Nechanchi?) *O'n beshinchi maktab,*
... .

Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar nechta?, qancha? so'roqlariga javob bo'ladi.

Narsa va shaxsning tartibini bildirgan so'zlar nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi.

256-mashq. Topishmoqlarni o'qing. Javoblarini toping.

Bir chuqurda ming chuqur,
Chuqurni igna cho'qir.

Qirq ko'ylagi bor,
Bir tugmasi yo'q.



Yozing. Narsalar sanog'ini bildirgan so'zlar tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Topishmoqlar javobini topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi? Shu so'zlar qaysi so'roqqa javob bo'lyapti?



257-mashq. Sonlarni qo'shib o'qish orqali so'z ma'nosini chiqaring.

O'quvchi **2** lanmay javob berdi.

Kuch **1** likdadir.

Vatan haqida **4** liklar o'qidik.



Yozing. Shunga o'xshash boshqotirmalar tuzishga harakat qilib ko'ring.



258-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga mazmunga mos so'zlarni qo'yib yozing.

Bir yilda (n e c h t a ?)... fasl bor. Har faslda (necha?)... oy bor. Bir oyda (q a n c h a ?) ... hafta bor.

Har haftada (q a n c h a ?)... kun bor. Bir kecha-kunduz (necha?) ... soatdan iborat. Bir soat (necha?) ... daqiqa.

Hozir (n e c h a n c h i ?)... oy. Bugun oyning (n e c h a n c h i ?) ... kuni.



Narsalarning sanog'i va tartibini bildirgan so'zlarni tegishlicha belgilang.

259-mashq. Maqollarni o'qing. Mazmunini tushuntirishga tayyorlaning.

Egri ish ellik yildan keyin ham bilinadi.

Ilmsiz bir yashaydi, ilimli ming yashaydi.

Bir mayizni qirq kishi bo'lib yebdi.



Yozing. Sanoqni bildirgan so'zlarni belgilang.

260-mashq. She'rlarni o'qing. Sanoqni bildirgan so'zlarni aniqlang.

O'nta qo'l egolmas boshni,
Chirillatar yuz kilo toshni.

Yo'lini topsa edi To'lanboy
Ko'tarardi o'zi quyoshni.

Yong'in Mirzo

Qirq og'ayni botirlar
Qaydan kelayotirlar?
Balki qirq kunlik yo'ldan
Yeldek yelayotirlar.

Boborahim Omonov



Sanoqni bildirgan so'zlarga so'roq bering va o'zi bog'langan so'z bilan birga yozing.

261-mashq. O'qing.

O'ZBEKISTON QIZIL KITOB

O'zbekiston Qizil kitobining yangi nashri chop etildi. Kitobga 184 turdagi hayvonlar kiritildi. Botanika qismiga 324 turdagi o'simliklar yozildi.

Ular yo'qolib ketish xavfi ostida qolgandilar. Masalan, Toshkent viloyatidagi bir qishloqda 150 yillik nok daraxti o'sar ekan. Undan 500 kg atrofida hosil yig'ib olinadi. Nokning bu noyob turi ham ushbu kitobga kiritilgan.

O'simlik va hayvonlarni asrash hamma-mizning burchimizdir.

 *Savollarga javob bering.*

1. Qizil kitob nima ekanligini bilasizmi?
2. Siz o'simlik va hayvonlarga qanday munoqabatdasiz?

 Berilgan raqamlarni so'z bilan yozing.

 **262-mashq.** O'qing.

Yong'oq qoqvoldim,
Mag'zini chaqvoldim:
Dadamga — o'ttizta,
Ayamga — to'qqizta,
Bobomga — yetmishta,
O'zinga to'rt-beshta.

Anvar Obidjon

 Yozing. Sanoqni bildirgan so'zlarni so'roq berib aniqlang, tagiga chizing.



GAP

 Gap nima?

263-mashq. O'qing. Ustunning qaysi tomonida gap berilgan?

O'quvchi, o'z,
maktab, sevadi.

O'quvchilar o'z
maktablarini sevadilar.



Qaysi soʻzlardan gap tuzilgan? Nima uchun?
Gapni yozing.

Gap tugallangan fikrni bildiradi.

Gap soʻzlardan tuziladi.

Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi. *Yaxshidan bogʻ qoladi.*

264-mashq. Gaplarni oʻqing.

9-aprel — Amir Temur bobomizning tugʻilgan kuni. Bobomiz Kesh shahri atrofidagi obod joyda tugʻilgan.

Amir Temur juda nozik didli kishi boʻlgan. Tabiati goʻzal yerlarni yoqtirgan. Dam olgan chiroyli joylarni obod qildirgan. U nihoyatda adolatli podsho boʻlgan.



Gaplarni yozing.



Gapning oxiriga qachon nuqta (.), soʻroq belgisi (?) va undov belgisi (!) qoʻyiladi?

265-mashq. Oʻqing. Yozing.

Vatan nima? Vatan — biz tugʻilib oʻsgan yurt. Ona Vatan soʻzi naqadar aziz!



Gapning boshi hamda oxirini qanday belgiladingiz?

Vatan haqida gap tuzing yoki maqol ayting.

Gap biror narsa haqida xabar mazmunini bildirsa, oxiriga **nuqta** qo'yiladi.

Gap so'rash mazmunini bildirsa, oxiriga **so'roq belgisi** qo'yiladi.

Gap kuchli his-hayajon bilan aytilsa, oxiriga **undov belgisi** qo'yiladi.



266-mashq. She'rni o'qing.

AJIB SIR

Bolarining qahri yomon,
Chaqmasin-ey, zahri yomon!
Tushunmadim ammo sirin:
Nega uning boli shirin?

Rustam Nazar



She'rni yozing. Gaplar oxiriga qanday tinish belgilari qo'yilgan?



267-mashq. Gaplarni o'qing.

Sa'dulla ukasi bilan gulzorga kirdi. Gullar qiyg'os ochilgan. Ular bir dasta gul terishdi. Gullarni oyisiga berdilar.



Gaplarni yozing.



268-mashq. O'qing.

Ishchilar mashinalarni zavodda yasaydilar.
Mashinalar ishni yengillashtiradi.



Gaplarni yozing.

Birinchi gap kimlar haqida aytilgan? Ishchilar haqida nima deyilgan? Ikkinchi gap nimalar haqida aytilgan? Mashinalar haqida nima deyilgan?

269-mashq. O'qing.

Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'ng-
lidan joy oldim.

Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala
qilmadim. Ulug'larni og'a qatorida, kichiklarni
farzand o'rnida ko'rdim.

Amir Temur



Gaplarni yozing. Amir Temur bobomizning ibratli
fazilatlarini sanang.



270-mashq. Uchta gap tuzib yozing.



271-mashq. Topishmoqlarning javobini toping.

Bir burchakda so'zlaydi,
Ham chaladi, kuylaydi.

Hamma uning soʻzlagan
Xabarini tinglaydi.

r				o
---	--	--	--	---

Hammaga toʻn tikadi,
Oʻzi yalangʻoch.

i			
---	--	--	--



Topishmoqlarni yozing. Javobini yozing.

272-mashq. Oʻqing.

Bolalar donxoʻrak yasadilar. Qushlar unda donlaydi. Yovvoyi kaptarlar bogʻda yashaydi. Kishilar ularga don beradilar.



Birinchi gapni koʻchiring. Gap kimlar haqida aytilgan? Shu soʻzni ayting. *Bolalar* soʻzining tagiga bitta chiziq chizing. Bolalar haqida nima deyilgan? Bir soʻz bilan ayting. Bolalar haqida nima deyilganini bildirgan soʻz (*yasadilar*) ning tagiga ikkita chiziq chizing.

Keyingi gaplarni ham shunday tahlil qiling.

Gap kim (kimlar) yoki nima (nimalar) haqida aytiladi va ular haqida fikr bildiradi.

(Kim?) Shifokor bemorlarni (nima qiladi?) davolaydi. (Nima?) Oltin oʻtda (nima qiladi?) bilinadi.



273-mashq. Kitob mutolaasi haqida to'rtta gap tuzib yozing. 

274-mashq. Kim haqida aytilganini bildirgan mazmunga mos so'zni qo'yib, gap tuzing va yozing.

(Kim?) ... bolalarni o'qitadi.	o'quvchi
(Kim?) ... binolarni quradi.	o'qituvchi
(Kim?) ... kiyimlarni tikadi.	binokor
(Kim?) ... maktabda o'qiydi.	tikuvchi



Gap kim haqida aytilganini bildirgan so'zlarning tagiga bitta chiziq chizing.



Gaplarda *o'qituvchi*, *binokor*, *tikuvchi*, *o'quvchi* haqida nima deyilganini bildirgan so'zlarni toping. Shu so'zlarning tagiga ikkita chiziq chizing.



275-mashq. O'qing.

Go'zalning tug'ilgan kuniga dugonalari kelishdi. Lobar she'r o'qidi. Gulshod raqsga tushdi. Hammalari birgalashib qo'shiq aytishdi.



Gaplarni ko'chiring. Har bir gap kim yoki kimlar haqida aytilganini bildirgan so'zlarni aniqlang va belgilang.

276-mashq. So'roq gaplarga uchta namuna yozing. 

GAPNING ASOSI. GAPDA SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI



277-mashq. O‘qing. Gaplarning chegarasini aniqlang.

odamlar cho‘lga suv keltirdilar paxtakorlar u yerlarga paxta ekishdi bog‘bonlar mevazor bog‘lar yaratishdi



Yozing. Birinchi gap kimlar haqida aytilgan? Shu so‘z tagiga bitta chiziq chizing. Odamlar haqida nima deyilgan? Bu so‘z tagiga ikkita chiziq chizing. Ikkinchi va uchinchi gaplar kimlar haqida aytilgan va ular haqida nima deyilgan?



278-mashq. O‘qing.

O‘quvchilar maktab hovlisiga gilos ko‘chatini o‘tqazdilar. Gilos mart oyida oppoq gulladi. Atrofga yoqimli hid tarqaldi. Gilos may oyida pishadi. Yosh bog‘bonlar mehnatlari mevasidan yeydilar.



Yozing. Har bir gapdan shu gap kimlar yoki nima haqida aytilganini va ular haqida nima deyilganini bildirgan so‘zlarni aniqlang, tagiga chizing.



? Gapning asosini qanday aniqlaymiz va belgilaymiz?

Gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan soʻz bilan ular haqida nima deyilganini bildirgan soʻz gapning asosiy mazmunini bildiradi. Bu — gapning asosi boʻladi.

Gapning asosini belgilash uchun ushbu gapni oʻqiymiz. *Oʻquvchi mehnatni sevadi.* Avval soʻroq berib, gap kim (yoki nima) haqida aytilganini bildirgan soʻzni topamiz: (kim?) *oʻquvchi*; uning tagiga bitta chiziq chizib belgilaymiz.

Keyin soʻroq berib u (oʻquvchi) haqida nima deyilganini bildirgan soʻzni topamiz: (nima qiladi?) *sevadi* va uning tagiga ikkita chiziq chizib belgilaymiz.

(Kim?) *Oʻquvchi* *mehnatni* (nima qiladi?) *sevadi*.

(Nima?) *Mehnat* *kishini* (nima qiladi?) *ulugʻlaydi*.



279-mashq. Mazmunga mos soʻzlarni nuqtalar oʻrniga qoʻyib, gaplarni yozing.

Oʻlkamizga zumrad ... keldi. Mevali ... gulladi. Har xil ... ochildi. Dalalarda ... koʻpaydi.

Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: *bahor, ish, daraxtlar, gullar.*



Har bir gapning asosiy mazmunini bildirgan so'zlarni aniqlang va ularning tagiga tegishli chiziqlarni chizing.



280-mashq. Gapning mazmuniga mos so'zni qo'yib, yozing.

Qishda tipratikanlar shox-shabba tagida... .
 Mana bahor ham... . Ona tabiat... .
 Tipratikanlar qish uyqusidan... .



Har bir gapning asosini (mazmunini) bildirgan so'zlarni aniqlab tagiga chizing.

Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: *uxladi, keldi, turdi, uyg'ondi.*

So'zlar mazmun jihatidan o'zaro bog'lanib, gap hosil qiladi.

281-mashq. Gapni o'qing va yozing.

Mevali daraxtlar bahorda gullaydi.



Gapda o'zaro bog'langan so'zlarni aniqlang.
 Buning uchun avval gapning asosini aniqlang va belgilang.

(Nimalar?) Daraxtlar (nima qiladi?) gullaydi.

Daraxtlar soʻzidan mazmunan unga bogʻlangan soʻzga soʻroq bering:

(q a n d a y ?) *mevali daraxtlar*.

Gullaydi soʻzidan mazmunan unga bogʻlangan soʻzga soʻroq bering: (q a c h o n ?) *bahorda gullaydi*.

Gapni yozing. Soʻzlarning bogʻlanishini quyidagicha belgilang:

(N i m a l a r ?) daraxtlar, (n i m a q i l a d i ?)

gullaydi.

q a c h o n ?

bahorda

q a n d a y ?

mevali



282-mashq. Soʻzlarni oʻqing.

sevadi, juda, yer, mehnatni;
yaxshi, yerdan, olinadi, hosil.



Savollarga javob bering.

1. Berilgan soʻzlar nimani bildiradi?
2. Shu soʻzlardan gap hosil boʻlishi uchun nima qilish kerak?
3. Soʻzlardan gap tuzing va yozing.




283-mashq. Mazmunga mos soʻzlarni qoʻyib, gaplarni yozing.

Bahorda (n i m a l a r ?) gullaydi. Qirda (n i m a l a r ?) ochiladi. Egatlarga (n i m a l a r ?) ekildi. Yaylovda (n i m a l a r ?) o'tlaydi.



Gap nimalar haqida aytilganini, ular haqida nima deyilganini bildirgan so'zlar tagiga chizing.

284-mashq. Maqollarni o'qing. Yozing. Gapdagi so'zlarning bog'lanishini namunadagidek chizmada ko'rsating.



Namuna: *Odob bozorda sotilmaydi.*

Odob bozorda sotilmaydi. Do'st kulfatda sinaladi. Qanoat qorin to'ydirar. Intizomli lashkar yengilmas.



Gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so'zning tagiga bitta chiziq chizing.



285-mashq. O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang.

o'quvchilar maktab bog'ida ishladilar qizlar bog' yo'laklarini supurdilar o'g'il bolalar daraxtlarni oqladilar bog' yana ham ko'rkamlashdi



Yozing. Har bir gapning asosini belgilaydigan so'zlarning tagiga chizing.



286-mashq. Gaplarni o‘qing. Avval bahor, keyin yoz haqidagi gaplarni yozing.

Quyosh kuchli qizdiradi. Polizda qovunlar pishadi.

O‘tloq yam-yashil maysa bilan qoplanadi. Mevali daraxtlar gullaydi. Bahorda kunlar isiydi.



Yoz fasli haqidagi gaplardagi o‘zaro bog‘lanishni chizmada ko‘rsating.

287-mashq. Maqollarni o‘qing. Mazmunini tushundingizmi?

Odamning qo‘li cho‘lni bo‘ston qiladi.

Mehnat bilan yer ko‘karadi.



Maqollarni ko‘chiring. Ikkinchi gapning asosini aniqlab, belgilang.



288-mashq. Bitta gap yozing. Undagi o‘zaro bog‘lanishni chizmada ko‘rsating.



NUTQ VA MATN



289-mashq. Rasmga qarang. Savollarga javob bering.



Bolalar qayerga bordilar?
Quruvchilar nimalar quradilar?



Nutq kishilarga nima uchun kerak? O'ylab ko'ring.

Nutq kishilarga shaxs va narsa haqida xabar berish yoki so'rash uchun kerak.

290-mashq. Gaplarni o'qing.

Odamlar juda qadim zamonlardan o'zaro munosabatlarda so'zlashishni o'rgangan. Bu og'zaki nutq deyilgan. Yozuv paydo bo'lgach, odamlar fikrlarini yozganlar. Bu yozma nutq deyiladi.



Yozing.

291-mashq. Gaplarni o'qing.

Kompyuter o'yinlarini tanlab o'ynash kerak. Mazmunli, bilim beruvchi o'yinlarni o'ynash lozim. Kompyuter yonida uzoq o'tirish sog'liq uchun zarar.



Siz nimalar haqida bilib oldingiz? Yozing.

**292-mashq.** Gapni o'qing.

Nutq kishilarning ahil yashashi va ishlashiga yordam beradi.



Siz nima haqida bilib oldingiz?

Gapni yozing. Yozganingizni tekshiring.



Nutq nimalardan tuziladi?



Nutq gaplardan tuziladi.

293-mashq. Rasmga qarab kichik hikoya tuzing. U qanday nutq bo'ldi? Sarlavha tanlang.





Sarlavhani qo'yib, hikoyani yozing. U qanday nutq bo'ladi? Hikoyadan bir gapni tanlang. Gap kim yoki kimlar haqida aytilgan? Kim yoki kimlar so'rog'iga javob bo'lgan so'zning tagiga bitta chiziq chizing.



294-mashq. Gaplarni o'qing va yozing.

Zira — foydali o'simlik. U tog'larda o'sadi. Zira iyunda gullaydi.

Mevasi iyulda yetiladi. Ziraning mevasi juda xushbo'y bo'ladi.



Nechta gap yozdingiz? Gapning boshlanishi va oxiri qanday belgilangan?



295-mashq. O'qing.

Mushtariy barvaqt turadi. Yuz-qo'lini yuvadi va kattalarga salom beradi. Mushtariy ertalabki nonushtani tayyorlashda onasiga yordamlashadi.



Hikoya bizni nimaga o'rgatadi? Kun tartibingizni so'zlab bering. Yozing va tekshiring.

296-mashq. «Mening bir kunim» mavzusida 3–4 ta gap yozing. U qanday nutq bo'ladi?



297-mashq. Alisher Navoiyning hikmatli gaplarini o'qing. Mazmunini anglab olishga harakat qiling.

Yolgʻonchi — kishi emas, yolgʻon aytmoq mardlarning ishi emas.

Kimki ulugʻroq, anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq, anga shafqat kerak.



Gaplarni yozing.



Matn nima?

Mazmunan oʻzaro bogʻlangan ikki yoki bir necha gap **matn** deyiladi. Matnga sarlavha qoʻyish mumkin.

298-mashq. Oʻqing.

Shamoldan oʻrmon shovullaydi.

Boyoʻgʻli kemiruvchilarni yeb hayot kechiradi.

Boyoʻgʻli bogʻ va oʻrmonlarda, dasht va choʻllarda yashaydi. U tunda kemiruvchilarni ovlaydi. Boyoʻgʻli — foydali qush.



Matn qaysi ustunda berilgan? Qaysi ustunda oʻzaro bogʻlanmagan gaplar berilgan? Matnni yozing.

299-mashq. Oʻqing.

YOSHLAR IJOD SAROYI

Mamlakatimizda bolalar ijodiyotiga katta ahamiyat beriladi. Toshkentda Yoshlar ijod saroyi bor. U 2008-yili barpo etilgan.

Yurtimizda iste'dodli bolalar juda ko'p. Ular rassomlik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, san'at va boshqa yo'nalishlarda ijod qiladilar.

Saroyda yosh ijodkorlarning asarlari namoyish qilib boriladi. Bu yerda ularga zarur maslahatlar ham beriladi.



Matnda nimalar haqida yozilgan? U necha qismdan iborat?



Topshiriq.

Matndan foydalanib, savollarga javob bering va yozing.

1. Toshkentda qanday saroy bor?
2. Yoshlar ijod saroyi qachon barpo etilgan?
3. Saroyda kimlarning asarlari namoyish etiladi?



300-mashq. Matnni o'qing.

OLTIN VODIY GAVHARI

Andijon Farg'ona vodiysi shaharlaridan biri. Bugungi Andijonning jamoli har qanday odamda havas uyg'otadi.

Yangidan bunyod etilgan «O‘zbekiston» ko‘chasi juda ko‘rkam. Ko‘chaning ikki tomonini yo‘lakchalar, yashil maydonlar, yoritgichlar bezab turadi.



Matnda nechta qism bor? Matnni yozing. Har bir qismni xatboshidan yozing.



301-mashq. Matnni o‘qing.

KURASH

Kurash — sport turlaridan biri. Bu ikki sportchining yakkama-yakka olishuvidir. Yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo kabi sport kurashi turlari bor. Bular qatoriga o‘zbek kurashi ham kiritildi.



Matnni yozing. Siz qaysi sport turiga qiziqasiz? Shu haqida so‘zlab bering.

302-mashq. O‘qing.

MARKAZIY XOTIRA MAYDONI

Markaziy xotira maydoniga ziyorat uchun bordik. U yer muqaddas qadamjodir. Bu majmuani bunyod etishda Qo‘qon, Buxoro, Samarqand, Urganch, Xiva ustalari fidokorona mehnat qilganlar.



Markaziy xotira maydoni haqida bilganlaringizni soʻzlab bering.

Matnni koʻchiring. Shahar nomlarini bildirgan soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib yozing.



303-mashq. Tushirib qoldirilgan harflarni nuqtalar oʻrniga qoʻyib koʻchiring.

Gul uygʻ...ndi, bulb...l uygʻ...ndi,
Maysalarni uygʻ...tdi yellar.
Chapak chaldi yaproqlar xursan...,
Lolalarni uygʻ...tdi yellar.

Hasan Poʻlat



Sheʼr nima haqida yozilgan?

Qiyoslang: *gul uygʻondi* – *ukam uygʻondi* va
yaproqlar chapak chaldi – *bolalar chapak chaldi*.



TAKRORLASH

304-mashq. Soʻz nimalarni bildiradi? Narsa-shaxs-ning nomini, uning harakatini, belgisini va sanogʻini bildiradigan soʻzlarga misol ayting.

305-mashq. Sheʼrni oʻqing.

Bahor kunduziday yashna, yosh avlod,
Yoʻling yorugʻ boʻlsin, gulshaning obod.

Maqsud Shayxzoda



Yozing. Yozilishi tekshiriladigan soʻzlarning tagiga chizing.

306-mashq. She'rni ifodali o'qing va uni yozing.

Bahor keldi,	Oh, qandayin
Gul ochildi,	O'yin-kulgi!
Nur sochildi	Yurak to'ldi
borliqqa.	shodlikka.

Zafar Diyor



Narsani bildirgan soʻzlar tagiga bitta, harakatni bildirgan soʻzlar tagiga ikkita chiziq chizing.

307-mashq. Matnni o'qing.

Bir kuni Marat ruchkasini esidan chiqarib qo'yibdi. To'liqinda esa ikkita ruchka bor edi. Marat undan:

— Bitta ruchkangni berib tur, o'rtoq, — deb so'ragan edi, To'liqin:

— Nega o'zingnikini esdan chiqarding? Ber-mayman, — dedi.

Marat boshqa qistamadi. Shu kuni u darsda hech narsa yozolmadi.

Hakim Nazir



Savollarga javob bering.

1. To'liqin ortiqcha ruchkasini o'rtog'iga berib tur-magani to'g'rimi?

2. Siz o‘z narsangizni o‘rtog‘ingizga berib tura-sizmi?



Oxirgi ikkita gapni yozing. Harakatni bildirgan so‘zlar tagiga ikkita chiziq chizing.



308-mashq. Topishmoqni o‘qing. Javobini toping.

Yerda asta unadi,
Oftob chiqsa kuladi.
Bahorning ilk elchisi,
Buni hamma biladi.

		y			ch		k
--	--	---	--	--	----	--	---



Matndagi qaysi so‘zlarga ma‘nosi yaqin so‘zlar tanlay olasiz? Tanlagan so‘zlaringizni yonma-yon yozing.



309-mashq. Matnni o‘qing.

GULBEOR

Gulbeor — bir yillik manzarali o‘simlik. Etli, pushti rang poyasi bor. Bargi ham etli va sersuv. Sariq, och sariq, pushti, qizil rangda gullaydi.

Gulbeor urug‘dan ko‘payadi. Poyasi uzib olinib, nam tuproqqa tiqib qo‘yilsa ham ko‘karadi.



Matnning birinchi bo'limini yozing. Narsa nomini bildirgan so'z tagiga bitta chiziq, belgisini bildirgan so'z tagiga to'liqlik chizing.

310-mashq. Topishmoqni o'qing va javobini yozing.

Kunduz nurin sochadi,
Kechga borib qochadi.

q				
---	--	--	--	--



Qaysi undosh tovush harflar birikmasi bilan ifodalangan? Aniqlang, tagiga chizing.



311-mashq. She'rni o'qing va yod oling.

Yaxshi bola ukasini
Yig'laganda ovutadi,
Yomon bola araz qilib,
Issiq oshni sovutadi.

Tolib Yo'ldosh



She'rni yoddan yozing. Qarama-qarshi ma'noli so'zlarning tagiga chizing. Ajratilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli so'zlarni tanlang va ularni yonma-yon yozing.



312-mashq. O'qing. Qancha?, nechta? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

CHUMCHUQ

Chumchuq ham foydali qush. Bir chumchuq oilasi palaponlarini boqish uchun o'n mingta hasharotni tutadi. Chumchuqlar ikki marotaba bola ochadi. Demak, ular yigirma ming hasharot bilan palaponlarini boqadi.

Shunday qilib, sakson tup olma daraxti zararli hasharotlardan saqlanadi.



Yozing. Sanoqni bildirgan so'zlar tagiga to'liqinli chiziq chizing.



313-mashq. O'qing.

Shotut — ko'p yillik daraxt. Shoxlari qo'ng'ir-qizg'ish. Bargi dag'al, qalin. Aprelda meva tugadi, may oyida pishadi.

Mevasining rangi qora yoki to'q qizil. Mazasi nordon.

Shotut — shifobaxsh meva.



Matnni yozing. Belgini bildirgan so'zlarning tagiga chizing. «Shifobaxsh» so'zining ma'nosini izohlang.



314-mashq. Rasmlarga qarang. Gaplarni o'qing.

Bolalar chaylaga kirib yashirindilar. Yomg'ir tindi. Quyosh chiqdi.

Muzrob, Nazira va Naima lola terib yuri-shar edi. Kuchli shamol boshlandi. Birdan yom-g'ir quydi.



Gaplarni rasmlar tartibida yozing, hikoya hosil bo'lsin. Qaysi so'zlar bosh harf bilan yozilgan? Nima uchun? Yana qaysi so'zlar bosh harf bilan boshlanadi?

315-mashq. Rasmga qarang.



1. Bolalarga ism qo‘ying. Gaplar tuzing.
2. Yoz, yozgi ta’til haqidagi o‘ylaringizni so‘zlab bering.



Quyidagi satrlarni qanday izohlaysiz?

So‘lim tabiatning gul-chechagiman,
Obod, hur yurtimning kelajagiman.



Qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlang va yozing.



316-mashq. O‘qing.

O‘ZBEKISTON BAYROG‘I



O‘zbekiston bayrog‘i
Kamalakrang har yog‘i.

Moviy, yashil, qizil, oq,
Go‘zal bayroq — gul bayroq.

Oy-yulduzlar pirpirar,
Yayrab-yashnab hilpirar.

O‘pib ko‘zga surtamiz,
Qo‘lda mahkam tutamiz.

Xudoyberdi Komilov



Yozing. Belgi bildirgan soʻzlarning tagiga chizing.



317-mashq. Davlatimiz ramzlari haqida gaplar tuzib yozing.



318-mashq. Oʻqing.

Xondayliq qishlogʻiga koʻchib kelganimizga ikki yildan oshdi. Qishloq menga juda yoqdi. Atrofi togʻ. Togʻlar koʻm-koʻk, jonli gilam bilan toʻshalganday.

Sobit Gʻofurovdan




Yozing. Ikkinchi gapdagi oʻzaro bogʻlangan soʻzlarni aniqlang. Chizmada koʻrsating.



319-mashq. Ikkita gap yozing. Ulardagi soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini koʻrsating.



320-mashq. Quyidagi chizma asosida soʻzlari oʻzaro bogʻlangan gap tuzing.



321-mashq. Oʻqing.

QALDIRG‘OCH UYASI

Menda zarra qolmadi gumon —
Zo‘r ishlaydi qushlar miyasi.
Hayratlarga soladi hamon,
Qaldirg‘ochning loyli uyasi.

Turob Niyoz



Yozing. She‘rning ikkinchi qatoridagi gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsating.

322-mashq. Ikkita gap yozing. Ulardagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini chizmada ko‘rsating.



323-mashq. «Odobnoma» darsligidan matn tanlang. Undan gaplar ajratib olib, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsating.



324-mashq. Yakuniy dars: O‘rganilgan mavzular yuzasidan yakuniy mashg‘ulot.



MUNDARIJA

Takrorlash	3
Gap va soʻz.....	6
Bosh harf bilan yoziladigan soʻzlar.....	8
Tovushlar va harflar.....	10
Unli tovushlar va harflar.....	12
Undosh tovushlar va harflar.....	20
Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar.	
Ularning harf bilan ifodalanishi.....	24
Aytilishda tushib qoladigan undoshlar.....	30
X va h tovushlarning talaffuzi va imlosi.....	34
Harf birikmasi bilan ifodalanadigan undosh tovushlar..	37
' – Tutuq belgisi	39
Boʻgʻin. Soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlish.....	43
Boʻgʻin koʻchirish.....	46
Soʻz ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning talaffuzi va imlosi	52
Soʻz.....	58
Shaxs va narsa nomini bildirgan soʻzlar.....	61
Kishilarning ismi va familiyasida bosh harf.....	73
Hayvonlarga qoʻyilgan nomlarda bosh harf.....	79
Shahar, qishloq, koʻcha, daryo nomlarida bosh harf....	82
Shaxs va narsa harakatini bildirgan soʻzlar	86
Shaxs va narsa belgisini bildirgan soʻzlar	99
Sanoq va tartibni bildirgan soʻzlar.....	110
Gap.....	115
Gapning asosi. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi.....	121
Nutq va Matn.....	126
Takrorlash	133

KARIMA QOSIMOVA

SIDDIQ FUZAILOV

ADOLAT NE'MATOVA

ONA TILI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik*

Qayta ishlangan va to'ldirilgan o'n to'rtinchi nashri

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi — 2018

Muharrir Davron Ulug'murodov

Badiiy muharrir Azamat Yuldashev

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Musahhih Dilafro'z Choriyeva

Matn teruvchi Gulchehra Azizova

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2018-yil 20-aprelda ruxsat etildi. Bichimi 70×90^{1/16}. Ofset qog'ozi. School garnituras. Kegli 16, 14. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 10,53. Nashr tabog'i 10,62. Adadi 490375 nusxa. Shartnoma № 35–2018. Buyurtma № 66-18.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlandi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100206, Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangi shahar, 1.

Qosimova K.

O-58 Ona tili [Matn]: 2-sinf uchun darslik/A. Ne'matova [va boshq.].
Mas'ul muharrir T. Tog'ayev. — Qayta ishlangan o'n to'rtinchi nashri. — T: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018. —144 b.
ISBN 978-9943-5088-5-9

UO'K 811.512.133'242(075.2)

КБК 81.20'zb-922

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval.

T.r.	O'quvchi-ning ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslik-ning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslik-ning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi